

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM
VAZIRLIGI**

TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK INSTITUTI

**“XORIJIY MAMLAKATLAR IQTISODIYOTI VA
MAMLAKATSHUNOSLIK” FAKULTETI**

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

**XITOIY MOLIYA-KREDIT TIZIMIDA ZAMONAVIY
ISLOHOTLARNING XUSUSIYATLARI**

Bajardi: 5341000-“Xorijiy mamlakatlar
iqtisodiyoti va mamlakatshunoslik”
ta’lim yo‘nalishining bitiruvchisi
Pirnapasova Shahnoza Dilshodovna

Ilmiy rahbar: professor,
g.f.d. Soliyev A.S. _____

Toshkent-2014

MUNDARIJA

KIRISH	3
I BOB. MOLIYA-KREDIT TIZIMINING NAZARIY ASOSLARI	8
1.1. Moliya va moliya tizimining shakllanish bosqichlari	8
1.2. Jahon moliya-kredit tizimining zamonaviy tendensiyalari	16
II BOB. GLOBALLASHUV SHAROITIDA XITOIY IQTISODIYOTI RIVOJLANISHIDA MOLIYA-KREDIT TIZIMINING HOZIRGI HOLATI VA UNING AHAMIYATI	25
2.1. Xitoy moliya-kredit tizimida amalga oshirilgan islohotlarning asosiy yoʻnalishlari	25
2.2. Mamlakat moliya-kredit tizimida amalga oshirilgan islohotlarning milliy xoʻjalikka taʼsiri	40
2.3. Xitoyning islohotlar borasidagi tajribasini Oʻzbekistonda qoʻllash imkoniyatlari	51
XULOSA	55
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROʻYXATI	59

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. Hozirgi kunda Xitoy yalpi ichki mahsulot hajmi bo'yicha dunyo davlatlari ichida ikkinchi o'rinni egallab ulgurdi. Xitoyning iqtisodiy o'sish ko'rsatkichlari ko'pgina rivojlanayotgan davlatlardagi ko'rsatkichlardan yuqori, rivojlangan iqtisodiyotga ega davlatlar ichida esa bu borada Xitoy yetakchilik qiladi. Faqatgina 2013-yilga kelib, Xitoyning iqtisodiy o'sish ko'rsatkichi 7,6 foizni tashkil qildi (oxirgi o'n yillik davomida Xitoyning iqtisodiy o'sish ko'rsatkichi o'rtacha 10-12 foizni tashkil qilgan). Bu kabi yuqori iqtisodiy o'sish natijalariga erishishda Xitoy Xalq Respublikasi tomonidan amalga oshirilgan nafaqat qishloq xo'jaligi, sanoat, maishiy xizmat ko'rsatish sohasidagi islohotlar, balki iqtisodiy rivojlanishning asosiy omillaridan biri bo'lmish, moliya sohasining to'g'ri faoliyat yuritishini ta'minlashga qaratilgan islohotlar ham muhim ahamiyat kasb etadi. Prezidentimiz Islom Karimovning 2010-yil 26 noyabrda qabul qilingan 2011-2015 yillarda Respublika moliya-bank tizimini yanada isloh qilish va barqarorligini oshirish hamda yuqori xalqaro reyting ko'rsatkichlariga erishishning ustuvor yo'nalishlariga doir qarorida ko'rsatib berilgan asosiy maqsadlarga erishishda O'zbekiston uchun Xitoy moliya sohasidagi amalga oshirilgan islohotlarni har tomonlama chuqur tahliliy o'rganish va uni O'zbekistonda milliy xo'jalik xususiyatlarini hisobga olgan holda qo'llash istiqbollarining tahlil qilinishi muhim ahamiyatga ega. Prezident I. A. Karimov ta'kidlaganidek: ““Xitoy va O'zbekiston o'rtasidagi do'stlik va hamkorlik to'g'risida”gi shartnomani hayotga astoydil tatbiq qilish maqsadidan chekinmaymiz, chunki O'zbekiston uchun O'zbekiston-Xitoy munosabatlarini mustahkamlash o'ta muhim ahamiyatga ega”.¹

XXR hukumati tomonidan amalga oshirilgan islohotlar evolyutsion xususiyatliligi bilan ajralib turadi. Xitoy iqtisodiy islohotlarni boshlashda tajriba metodidan keng foydalangan. Agrar sektorda ham dastlabki islohotlar ma'lum ajratib olingan hududlarda boshlangan. Keyinchalik ularning samaradorligi yuz

¹ Каримов И. А. Асосий вазифамиз – ватанамиз таракқиёти ва халқимиз фаровонлигини янада юксалтиришдир. – Т: Ўзбекистон, 2010.

foiz tasdiqlanganidan keyin ularni butun mamlakat bo`ylab joriy qilish boshlangan. Bu kabi ijobiy holatni boshqa sohalarda ham kuzatishimiz mumkin. Ko`plab G`arb iqtisodchilarining Xitoy iqtisodiyoti moliya sohasida amalga oshirilga va davom etayotgan islohotlarini salbiy baholash holatlari yoki ularni faqatgina Xitoy hududida to`liq monopol shakldagi rivojlanish ketma-ketligini tanqidiy baholashlariga ko`p duch kelamiz. Mazkur olimlar tomonidan bildirilgan fikrlar asossiz deb aytish qiyin. Ammo Xitoyning jahon xo`jaligi va jahon moliyaviy munosabatlari tizimidagi o`rnini tadqiq etar ekanmiz, ularning hamma fikr va takliflarining to`g`ri emasligiga amin bo`lamiz. Chunki Xitoyda amalga oshirilgan islohotlar natijasida nafaqat Sharqiy Osiyo, balki jahonda ham katta ahamiyatga ega bo`lgan va o`z o`rnini tobora mustahkamlab kengaytirib borayotgan fond birjalarining Xitoyda joylashganligini ko`ramiz. Bu kabi fond birjalari qatoriga Shanxay, Shenchjen, Guanjoulni kiritish mumkin. Bu fond birjalarining kapitalizatsiyasi Yevropaning yirik fond bozorlaridagi kapitalizatsiya miqdoriga teng.

Xitoydagi yirik banklar faoliyati jahon moliya bozorida o`zining mustahkam va barqaror o`rniga ega. Agarda Xitoy Xalqaro valyuta fondi, Jahon banki kabi tashkilotlarning maslahatlariga amal qilgan holda moliyaviy-iqtisodiy islohotlarni amalga oshirganida 1990-yillardan so`ng Rossiya Federatsiyasi moliya tizimida ro`y bergandagidek inqirozli holatlarning vujudga kelishi mumkin edi. Xitoy o`z bank tizimini jahondagi raqobatga avval tayyorlab oldi, so`ngra esa JST shartlari asosida o`z moliyaviy bozorini chet el kapitali uchun ocha boshladi. Bu kabi islohotlarni mantiqiy ketma ketligi rivojlanayotgan davlatlar uchun yaxshigina tajriba vazifasini o`tay oladi.

**Mavzuning o`rganilganlik darajasi.** Xitoy iqtisodiyotining moliya-kredit tizimida amalga oshirilgan islohotlar bilan ko`pgina Xitoy iqtisodchi olimlari shug`ullanib kelishgan. Jumladan, ular qatoriga Xitoy iqtisodiy islohotlari bosh arxitektori Den Syaopinni, Go Kelsoni, Xao Szyanxen, Lu Yunsyen, Chjou Veydi,

Chjao Xuashen, Su Fenlin, Li Szin Ven,² Lyu Goguan³, Li Ke,⁴ va boshqalarni kiritish mumkin.

Shu bilan birga, ular qatorida ushbu muammoni turli qirralarini o‘z asarlarida yoritib kelayotgan Rossiya iqtisodchi-xitoyshunos olimlaridan A.V.Ostrovskiy,⁵ E.F. Avdokushi,⁶ Ye.P. Bajenov,⁷ Z. A. Muromseva,⁸ A.S. Selishev,⁹ va boshqalarni nomlarini atab o‘tish lozimdir.

Undan tashqari, ushbu sohaning nazariy jihatlarini turlicha yondashuvlar orqali O‘zbekistonlik iqtisodchi olimlar ham o‘zlarining bir qator ilmiy monografiya va maqolalarida yoritganlar. Ular jumlasiga: N. T. To‘xliyev,¹⁰ A.V. Vaxobovlarni,¹¹ iqtisod fanlari nomzodlari Q. Q. Haqberdiyev,¹² B. D. Sadibekova,¹³ G. A. Melibayevalarni¹⁴ kiritish mumkindir.

Bitiruv malakaviy ishining maqsadi va vazifalari. Bitiruv malakaviy ishining maqsadi Xitoy Xalq Respublikasining moliya-kredit tizimida amalga oshirilgan islohotlar, ularning asosiy bosqichlari va xususiyatlarini tahlil etish va ushbu asosda kerakli tavsiyalar ishlab chiqish hisoblanadi.

Mazkur maqsadga erishish uchun tadqiqot ishi oldiga quyidagi vazifalari qo‘yildi:

- Moliya va moliya tizimining shakllanish bosqichlarini o‘rganib chiqish;
- Jahon moliya-kredit tizimining zamonaviy tendensiyalarini tadqiq etish;

²Ли Цзин Вэнь. Анализ и прогнозирование основных проблем экономики современного Китая // Прогнозирование развития КНР: экономика, информатика, внешняя политика и безопасность. /РАН ИДВ.- М., 2000, вып. 9., с.9-29.

³ Лю Гогун. Проблемы урегулирования экономической структуры Китая.// Проблемы ДВ,- 2001, № 6, с. 64-70.

⁴ Ли Ке Допустимые диспропорции и системная оптимизация региональной экономики Китая.//Проблемы теории и практики управления. 2002, № 1, с. 63-67.

⁵ Островский А.В. «Состояние и перспективы строительства экономики КНР», КНР: политика, экономика, культура, 2007г. Под ред.Титаренко М.Л., М., с. 77.,

⁶Е.Ф. Авдокушин. Международные экономические отношения, учебник, Юность, М., 2004 г. с.368.

⁷ Баженов Е.П. «Китай и внешний мир» М, 2000 г.

⁸ Муромцева З.А. Китайская Народная Республика: путь к индустриализации нового типа. М.: ИДВ РАН, 2009. 264 с.

⁹ Селищев А.С., Селищев Н.А. Китайская экономика в XXI веке.- СПб.: Издательство «Питер». 2004. – 15 п.л.

¹⁰ N.T.To‘xliyev.O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiyoti, o‘quv qo‘llanma,T-1998.

¹¹ A.V.Vaxobov. Milliy iqtisodiyotni modernizatsiyalash modellari va ulardan O‘zbekistonda ijodiy foydalanish yo‘nalishlari, Resp.ilmiy-amaliy konferensiya materiallari, 2012 y.25 aprel, 3-9 b.

¹² Q.Q.Haqberdiyev, “Moliya va kredit”, Toshkent 2006

¹³ B.D.Sadibekova “Xitoy iqtisodiyoti, o‘quv qo‘llanma, TDSHI, 2013 y.

¹⁴ MelibayevaG.A., GaziyeF.Sh.. “Xitoyning Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan iqtisodiy hamkorligi”. O‘quv qo‘llanma. Toshkent 2011.

- Xitoy moliya-kredit tizimida amalga oshirilgan islohotlarning asosiy yo`nalishlarini o`rganish;
- Mamlakatning moliya-kredit tizimida amalga oshirilgan islohotlarning milliy xo`jalikka ta`sirini chuqur o`rganish;
- Xitoyning islohotlar borasidagi tajribasini O`zbekistonda qo`llash imkoniyatlarini izlab topishdan iboratdir.

Bitiruv malakaviy ishining nazariy asoslari bo`lib Xitoy, AQSH, Germaniya, Rossiya va O`zbekiston iqtisodchi olimlarining ushbu soha bo`yicha ilmiy izlanishlari, Xitoy hukumatining moliya-kredit sohasida islohotlar o`tkazish va modernizatsiyalash bo`yicha qabul qilgan turli qonuniy va normativ aktlari, O`zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari hisoblanadi. Tadqiqot jarayonida guruhlash, tizimli yondashuv, iqtisodiy va statistik tahlil, taqqoslash tahlili va boshqa usullardan foydalanildi. Tadqiqotning axborot manbai bo`lib, XXR ning turli statistik ma`lumotlari, jumladan: Chjungo tunszi nyanszyan; Chjungo gune szinszi tunszi szilyao; Chjungo tunszi chjayno axborotnomalari va O`zbekiston Respublikasining makroiqtisodiyot va statistika vazirligining ma`lumotlari xizmat qildi. Ishda qiyosiy tahlil, analiz va sintez usullaridan foydalanilgan.

Bitiruv malakaviy ishining yangiligi. XXRning moliya-kredit tizimida islohotlar va modernizatsiyalash jarayonlarini amalga oshirishda unga to`sqinlik qilayotgan sabablar o`rganib chiqildi va moliya tizimining globalizatsiya va integratsiyalashuvi xususiyatlari tahlil qilinib, soha oldida yechimini kutayotgan muammolar aniqlandi va uning ayrim jihatlaridan O`zbekiston moliya-kredit tizimini modernizatsiyalashda foydalanish imkoniyatlari aniqlandi.

Bitiruv malakaviy ishining amaliy ahamiyati – har bir rivojlanayotgan mamlakat iqtisodiyoti uchun Xitoy moliya-kredit tizimini isloh qilish va zamonaviy modernizatsiyalash usullari bizning iqtisodiyotimizda tajriba sifatida foydalanish imkonini beradi. Undan tashqari, ishdagi moliya-kredit sohasini isloh qilish bo`yicha qilingan ba`zi bir tahlillar va tavsiyalar shu soha mutaxassislari uchun kerakli ozuqa bo`lishi mumkin. Mazkur ishdan iqtisodiy yo`nalishdagi Oliy

o'quv yurtlarida o'qitiladigan maxsus kurslarda va Xitoy iqtisodiyoti fanini o'qitishda ma'ruza sifatida bevosita foydalanish mumkin.

Bitiruv malakaviy ishining obyekti – XXR moliya tizimi hisoblanadi.

Bitiruv malakaviy ishining predmeti – XXR moliya-kredit tizimini isloh qilinishining asosiy bosqichlari va xususiyatlarini tahlil qilish hisoblanadi.

Bitiruv malakaviy ishi tarkiban, kirish, ikkita bob, beshta bo'lim, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

I BOB. MOLIYA-KREDIT TIZIMINING NAZARIY ASOSLARI

1.1. Moliya va moliya tizimining shakllanish bosqichlari.

Moliya – (lot. Financia to'lov haqidagi buyruq) maqsadli pul fondlarini hosil etish, jamlash, taqsimlash va ishlatish yuzasidan paydo bo'ladigan iqtisodiy munosabatlar. “Moliya” atamasi XVIII-XV asrlarda Italiyaning savdo shaharlarida paydo bo'lgan va dastlab har qanday pul to'lovini anglatgan. Keyinchalik bu atama xalqaro miqyosda tarqalgan va aholi hamda davlat o'rtasida pul vositalari davlat fondlarining yaratilishi bo'yicha pul munosabatlari tizimiga bog'liq tushuncha sifatida foydalanila boshlangan.

Dunyoning turli iqtisodiy adabiyotlarida moliya tushunchasiga turli xil izohlar mavjud:

Moliya – iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy vazifalarni bajarish uchun pul vositalari umumdavlat fondlarini shakllantirish va foydalanish amalga oshiriladigan jarayonda davlat tomonidan tashkil etilgan pul munosabatlari yig'indisi.¹⁵

Pul xo'jaligining gurkirab rivojlanishi natijasida hozirda moliya milliy daromadni taqsimlash va qayta taqsimlash jarayonlarida turli pul fondlarini shakllantirish, taqsimlash va foydalanish bilan bog'liq iqtisodiy munosabatlarni o'z ichiga oladi. Ya'ni, moliya bu davlatning funksiyalari va vazifalarini bajarish maqsadida markazlashtirilgan va markazlashtirilmagan pul fondlarni shakllantirish, taqsimlash va ulardan foydalanish jarayonlaridir.¹⁶

Odatda maqsadli pul fondlari deyilganda maqsadli ravishda vujudga keltiriladigan davlat va nodavlat fondlar nazarda tutiladi. Moliyada byudjet asosiy tushunchalardan hisoblanadi.

G'arbning ilmiy va o'quv adabiyotlarida moliya haqida aniq umumiy ma'lumot berilmagan. Moliya asosan keng talqin qilinadi va odatda moliyaning qaysi turi haqida gap borayotgani aniqlashtiriladi: jamoaviy, korporativ yoki shaxsiy. Jamoaviy (ing-Public finance) moliya deyilganda, odatda davlat pul

¹⁵ А.М.Ковалева “Финансы и кредит”, 2003.

¹⁶ Haqberdiyev Q.Q “Moliya va kredit” O'quv qo'llanma. Toshkent-2006 22-bet

resurslarining shakllanishi, foyda va xarajatlar balansi yana ularni nazorat metodlari tushuniladi. Korporativ moliya tushunchasi ostida odatda pulni boshqarish, pul boshqarish fani va san`ati tushuniladi. Shunday qilib moliyaviy menejment, moliyaviy bosqaruv, korporativ moliya va biznes moliya deyarli bir-biriga teng va bir-birini o`rmini bosuvchi tushunchalar hisoblanadi. Moliya nazariyasi tushunchasi G. Markovits, U. Sharp, R. Merton, F. Modilyani, M. Miller, J. Tobin, A. Blek kabi iqtisodchilar tomonidan yaratilgan arbitraj narx vujudga kelishi, kapitalning tuzilishi, portfel nazariyalari va moliyaviy aktivlar, opsiyonlar narxlari shakllanishi nazariyasi va boshqa nazariyalarni o`z ichiga oladi.

Moliya deganda yana iqtisodiy munosabatlarning alohida sohasini o`rganuvchi iqtisodiy fan ham tushuniladi.

Odatda moliya jamoat (markazlashgan, davlat va mahalliy) va xususiy (markazlashmagan) sohalarga bo`linadi. Xususiy moliya korporativ moliya (tashkilotlar moliyasi) va uy xo`jaligi moliya (shaxsiy va oilaviy moliya) larini o`z ichiga oladi.¹⁷

Jamoa va xususiy moliyalar orasidagi farqning muhim belgisi shuki, jamoaviy moliya va xususiy sektor moliyalari oldida turli maqsadlar yotadi. Xususiy sektorning asosiy maqsadi – foyda olish, ya`ni ishlab chiqarish yoki chayqovchilik yo`li bilan kapitalning ayirboshlash qiymatini imkoni boricha maksimal oshirish. O`z navbatida, jamoa moliyasining maqsadi umummilliy va hududiy darajada iste`mol qilinayotgan ijtimoiy boyliklarni taqsimlash va qayta taqsimlashdir. Undan tashqari, jamoat moliyasi uchun xarajatlar birlamchi hisoblanadi, chunki aniq belgilab qo`yilgan vazifalar va xalq ta`limi funksiyalarini moliyalashtirish amalga oshiriladi. Xususiy moliya uchun esa daromadlar – birlamchi, barcha faoliyat turlari daromad olishga yo`naltirilgan, oxir-oqibat bu foyda shaxsning o`z ixtiyoriga ko`ra ishlatiladi.

Uy xo`jaligi moliyasi va korporativ moliya orasidagi muhim farqlarga bog`liq ravishda ushbu kategoriyalar alohida deb qaraladi, shu tarzda, umuman, moliya jamoat, korporativ va shaxsiy moliyaga bo`linadi.

¹⁷ Финансы (учебник) / под ред. проф. Б. Г. Болдырева. – М., 2005

Korporativ moliyaning o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqqan holda uning quyidagi turlari ajratiladi:

- Kredit tashkilotlari moliyasi;
- Sug'urta tashkilotlari moliyasi;
- Kichik biznes va notijorat tashkilotlar moliyasi;

Moliyaning quyidagi asosiy funksiyalari mavjud:

1. Taqsimlash – moliya vositasida ichki yalpi daromad, taqsimlanadi va qayta taqsimlanadi, shu tufayli pul vositalari davlat ixtiyoriga kelib tushadi;
2. Nazorat qilish – taqsimlash jarayonining borishini kuzatish, shuningdek, davlat byutjetiga tushgan pul vositalarini maqsadga yo'naltirilgan holda sarflash;
3. Tartibga solish – davlatning moliya (soliqlar, davlat kreditlari va hokazolar) orqali ishlab chiqarish jaayoniga aralashuvi. Davlat alohida tashkilotlarni moliyalashtirish, soliq siyosatini o'tkazish yo'li bilan ishlab chiqarish jarayoniga ta'sir ko'rsatadi.
4. Barqarorlashtirish – fuqarolarni barqaror hamda ijtimoiy shart-sharoitlar bilan ta'minlash.

Shuningdek, moliyaning fiskal va rag'batlantiruvchi funksiyalari ham mavjud.

Moliyaning vujudga kelish asoslari:

1. Markaziy Yevropada birinchi burjuaziya inqiloblari natijasida qirollik boshqaruv tizimining saqlanib qolganligiga qaramay, uning davlat g'aznasi ustidan yakka hukmronligiga chek qo'yildi va natijada birinchi umumdavlat pul fondi hisoblanmish byudjet vujudga keldi.
2. Byudjetni shakllantirish va foydalanish tizimi xususiyatlari paydo bo'la boshladi. Ya'ni davlat foydasi va xarajatlari tizimi shakllandi. Ularning tarkibi aniqlashtirildi va qonun bilan mustahkamlab qo'yildi. Bu bosqichning ahamiyatga molik jihati shundaki, byudjet xarajatlari qismining asosiy guruhlarini bir necha asr davomida o'zgarmay kelgan. O'sha vaqtdayoq xarajatlarning asosiy 4 yo'nalishi belgilangan bo'lib,

ular quyidagilar: harbiy (yoki mudofaa), boshqaruv, iqtisod va ijtimoiy ehtiyojlar. Qiziqarli tarafi shundaki, har xil davlatlar turli zamonlarda o`z byudjetining 11-13% ini boshqaruvga sarflaganlar va hozirda ham bu holat davom etib kelmoqda.

3. Yuqoridagilar ta`siri ostida davlat byudjetini shakllantiruvchi qismi bo`lmish soliqlarni oldingidek natural ko`rinishda emas, balki pul ko`rinishida yig`ish ehtiyoji vujudga keldi va bu tizim shakllandi.

Shu bosqichdan boshlab davlatchilik va pul munosabatlarining rivoji yaratilgan yalpi mahsulotni qiymat ko`rinishida qayta taqsimlash imkonini berdi.

Moliya rivojlanishini 2 ta asosiy bosqichlarga ajratib olishimiz mumkin. Birinchi bosqich – dastlabki moliya ko`rinishi. Bu turdagi moliya noishlab chiqarish xususiyati bilan xarakterlanadi, ya`ni asosiy pul massasi (byudjetning 2/3 qismi) harbiy maqsadlarga yo`naltirilgan va iqtisodiyotga deyarli ta`sir o`tkazmagan. Bu bosqichning yana bir o`ziga xos xususiyati moliya tizimining torligidir, bu vaqtda moliya tizimi bitta bo`g`indan iborat bo`lgan – byudjetni shakllantirish, moliyaviy munosabatlar chegaralangan. Ularning barchasi byudjetni tashkil qilish va sarflashga bog`liq bo`lgan. Tovar-pul munosabatlari, davlatchilik rivoji natijasida yangi umumdavlat pul fondlarini tashkil qilish va o`z-o`zidan ularni shakllantirish va sarflash uchun yangi pul munosabatlariga ehtiyoj tug`ilgan.

Hozirgi vaqtda dunyoning hamma mamlakatlarida ularning siyosiy, iqtisodiy tizimiga qaramasdan, moliya o`zining yangi rivojlanish bosqichiga chiqdi. Bu moliya tizimini ko`p tarmoqliligi, iqtisodiyotga turli xil moliyaviy munosabatlar orqali ta`sir qilish darajasining yuqoriligi bilan izohlanadi. Bu bosqichda moliya ijtimoiy, moddiy boyliklarni qayta ishlab chiqarishda ishchi kuchi va ishlab chiqarish munosabatlariga vositali ta`sir o`tkazishning asosiy quroli hisoblanadi.

Ushbu atama, birinchidan, ikkita subyekt orasidagi pul munosabatlarini ifodalagan, ya`ni pul moliyaning mavjud bo`lishi va ishlashi uchun moddiy asos sifatida ishtirok etgan.

Ikkinchidan, bu munosabatlar jarayonida subyektlar turli huquqlarga ega bo`lishgan: ularning biri (davlat) alohida vakolatlar egasi bo`lgan.

Uchinchidan, bu munosabatlar jarayonida umumdavlat pul vositalari fondi – byudjet shakllandi, ya'ni bu munosabatlar fond xarakteriga ega bo'ldi.

To'rtinchidan, pul vositalarining byudjetga muntazam ravishda kelib tushishi soliqlar, yig'imlar va boshqa majburiy to'lovlarni davlat tomonidan fiscal apparatni shakllantirilmasligidan oldin yo'lga qo'yishni iloji bo'lmagan.

Davlat va korxonalarining pul mablag'lari fondlarini shakllantirish, taqsimlash va ishlatish tartibi, uslublari tizimiga moliya tizimi deb aytiladi. Shuningdek, moliyani pul mablag'lari jamg'armalarini yoki moliyaviy resurslarni shakllantirish, taqsimlash va foydalanish yuzasidan bo'lgan iqtisodiy munosabatlar majmuasi deb ta'riflash mumkin. Bunday munosabatlar yoki aloqalar moliya tizimi, ya'ni pul mablag'lari jamg'armalarini yaratish va foydalanish bo'yicha tartib va usullar, shuningdek, turli moliyaviy munosabat sohalari to'plami orqali amalga oshiriladi.

Moliya tizimi o'zida turli bo'g'in byudjetlarini, ijtimoiy, mulkiy va shaxsiy sug'urtani, davlat valyuta zahiralarini, korxona, tashkilot va firmalarning pul mablag'larini va boshqa maxsus jamg'armalarini jamlaydi. Tashkiliy jihatdan u mamlakatdagi barcha moliya muassasalarini qamrab oladi¹⁸.

Byudjet (budjet – ingl. to'rva, xurjun). Davlat byudjeti moliya tizimining asosiy bo'g'ini hisoblanib, u davlatning asosiy daromadlari va xarajatlarini birlashtiradi va o'zida soliq, davlat krediti va davlat xarajatlari kategoriyalarining yakdilligini mujassam etadi. Iqtisodda dbyudjeti tushunchasidan tashqari munisipal byudjet, oila byudjeti, iste'mol byudjeti, Geller byudjeti va boshqa tushunchalar ham ishlatiladi.¹⁹

Davlat byudjeti – bu davlat vazifalarini, mamlakat yoki tegishli ma'muriy-hududiy birlik iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishini ta'minlash maqsadida pul mablag'larini shakllantirish va ulardan foydalanishning asosiy moliyaviy rejasidir. Mamlakat hududida amalda bo'lgan va ijtimoiy munosabatlar hamda huquqiy

¹⁸ Финансы: Учебник для вузов/ под ред. проф. Романовского, О. В. Врублевской, проф. Б. М. Сабанти. – М: Перспектива, Юрайт, 2000. -520 с

¹⁹ Haqberdiyev Q. Q “Moliya va kredit” O'quv qo'llanma. Toshkent-2006 31-bet

me'yorlarga asoslangan barcha turdagi byudjetlar to'plamiga byudjet tizimi deyiladi.

Davlat byudjetining quyidagi asosiy funksiyalari mavjud:

- YaIM va milliy daromadni qayta taqsimlash;
- Iqtisodni davlat tomonidan tartibga solish va rag'batlantirish;
- Ijtimoiy siyosatni moliyalashtirish;
- Markazlashtirilgan pul mablag'lari fondini shakllantirish va uning ishlatilishini nazorat qilish.

Kredit — bu haq to'lash va qaytarib berish shartlari asosida ma'lum muddatga ixtisoslashgan kredit tashkilotlari (kreditorlar) tomonidan vaqtincha bo'sh bo'lgan mablag'larni unga ehtiyoji bo'lgan yuridik va jismoniy shaxslarga qarzga berish munosabatidir.

Kredit munosabatlari rivojlanishining ilk davrlarida ssuda kapitalining yagona manbai sifatida davlat, yuridik va jismoniy shaxslarning o'z xohishlariga binoan qarzga berishga mo'ljallangan, vaqtincha bo'sh pul mablag'lari xizmat qilgan. Ushbu mablag'lar kredit tashkilotlarining depozit hisoblarida jamlangan va birlamchi pul egalariga mukofot sifatida foiz to'lanib, mablag'lar pulga ehtiyoji bo'lgan shaxslarga haq to'lash sharti bilan kreditga beriladi.

Kredit tashkilotlarning foydasi esa jalb qilingan va kreditga berilgan pul mablag'lariga belgilangan foizlar o'rtasidagi farqdan kelib chiqadi. Kreditning bu manbasi bugungi kunda ham o'z dolzarbligini yo'qotgani yo'q. Aholini turmush darajasini tez oshib borishi davrlarida esa uning ahamiyati va ulushi ham ortib boradi. Ishlab chiqarish hajmlarini tez sur'atlarda kengayib ketishi, kredit tashkilotlarni iqtisodiy rivojlanishdagi rolini oshishi, naqdsiz pul muomalasi sohasini kengayishi ssuda kapitallarining yangi manbalarini keltirib chiqardi, ya'ni ishlab chiqarish va muomala sohalarida vaqtincha bo'sh bo'lgan moliyaviy resurslar paydo bo'la boshladi. Buning asosiy sabablari quyidagilardan iborat:

- ishlab chiqarilgan mahsulotlarni sotilishi va uni ishlab chiqarishga ketadigan xarajatlar: xom ashyo, materiallar, ishchilar mehnati haqi va boshqa to'lovlarning o'rtasidagi vaqt muddatlarini mos tushmasligi;

- asosiy fondlarning asta-sekin eskirib borishi a ularni yangilash yoki qayta tiklash maqsadida pul mablag'larini amortizatsiya fondlarida jamlanishi;
- foyda ko'rilgan muddatdan, to uni ishlatilib bo'lingunga qadar taqsimlanmagan qoldiqning mavjudligi.

Zamonaviy kredit tizimi ssuda kapitallari bozorida faoliyat yurituvchi va pul kapitalini jalb qilish va yo'naltirish bilan shug'ullanuvchi turli-kredit institutlari to'plamidir. Kredit tizimi odatda 3 bo'g'indan iborat bo'lib, Markaziy bank, tijorat banklari va ixtisoslashgan kredit-moliya tashkilotlarini o'z ichiga oladi. Uch bo'g'inli kredit tizimi asosan aksariyat sanoati rivojlangan mamlakatlarga xosdir.

Markaziy bank kredit tizimining o'zagini tashkil etadi.

Tijorat banklari – universal xarakterga ega ega bo'lgan kredit institutlaridir. Ular tomonidan taklif etilayotgan xizmatlar bugungi kunda bank mahsuloti nomini olgan va ularning ko'plab turlari mavjud. Zamonaviy tijorat banklari o'z mijozlariga 300 dan 600 gacha bo'lgan xizmat turlarini taklif etishadi. Ulardan asosiylari:

- Jismoniy va yuridik shaxslarga hisob varaqalarini ochish va yurgizish;
- Hisob-kassa xizmati, pullarni va pul hujjatlarini inkassatsiyalash;
- Jamg'armalarni foiz to'lash bilan saqlashga qabul qilish;
- Turli maqsadlarga kreditlar ajratish;
- Mablag` egasining topshirig'iga binoan pul mablag'larini ishonchli boshqarish;
- Xorij valyutalarining oldi-sotdisi;
- Qimmatli toshlar bilan amaliyotlar olib boorish;
- Hujjatlar yoki qimmatbaho buyumlarni saqlash uchun maxsus xona yoki seyflarni ijaraga berish va boshqalar.

Ixtisoslashgan kredit-moliya muassasalari bank-kredit institutlarining uchinchi guruhini tashkil etadi va o'z faoliyatlarida xo'jalik hayotining alohida soha va tarmoqlarini kreditlash bilan shug'ullanadi. Ularga investitsiya, pensiya fondlari, sug'urta kompaniyalari, ipoteka banklari va ssuda jamg'arma assotsatsiyalari kiradi. Nobank kredit tashkilotlari mohiyatiga ko'ra, kredit

tashkiloti maqomiga ega va o'z faoliyatlarida banklarga xos bo'lgan bir qancha operatsiyalarni amalga oshiradilar. Nobank kredit institutlarining banklardan yagona farqi moliyaviy mablag'larni jalb qilish uslubining o'zgachaligidadir. Bank tashkilotlari odatda o'z mijozlari pullarini to'g'ridan-to'g'ri jalb etadilar. Banklarga jalb qilinayotgan pul mabla'lari turli shartlardagi depozitlar yoki joriy hisob varaqlarida saqlanadi. Nobank kredit tashkilotlari ham o'z faoliyatlarida ko'plab pul mablag'larini jalb qilishga ehtiyoj sezadilar va jalb qiladilar. Amalda jalb etish uslubi nobank kredit tashkilotining ixtisoslashuviga qarab turlicha bo'ladi. Pensiya fondlariga moliyaviy resurslarni ishchi va xizmatchilarning pensiya va hisob varaqlariga jalb qilinadigan to'lovlar shaklida amalga oshiriladi. Investitsiya fondlari o'z qimmatli qog'ozlari emissiyasini sotish orqali pul jalb qiladi. Sug'urta fondlari esa sug'urta polislarini sotish orqali sug'urta to'lovlarini jamlaydi. Barcha turdagi nobank kredit tashkilotlari turli uslubda jamlangan pul mablag'larini keyinchalik kreditga berish, foyda keltiruvchi loyihalar yoki investitsiya portfellarini shakllantirish orqali ulardan daromad oladilar.

1.2. Jahon moliya-kredit tizimi va uning zamonaviy tendensiyalari

Moliya iqtisodiyotga ta'sir ko'rsatishning iqtisodiy instrumenti sifatida mamlakatlar o'rtasida ularning kelgusidagi taraqqiyoti uchun ijobiy hisoblangan xalqaro hamkorlikning shakllanishini ta'minlaydi.

Jahon moliyasi, bir tomondan, moliyaviy munosabatlarning jahon xo'jaligi aloqalariga tarqalishi natijasida paydo bo'lgan bo'lsa, ikkinchi tomondan, jahon iqtisodiyoti moliyaviy tizimining vujudga kelishi va rivojlanishi oqibatida vujudga kelgan. Moliya jahon iqtisodining bir qismi bo'lib, dunyoning moliyaviy resurslari yig'indisi, ya'ni moliyaviy resurslar va ularning moliyaviy tashkilotlari, xalqaro tashkilotlar va jahonning xalqaro moliyaviy markazlari, qonuniy biznesning barcha firmalari va Yerning 7 milliarddan oshayotgan barcha aholisini o'zida ifodalaydi.

Xalqaro moliya tizimi – turli mamlakatlarning milliy iqtisodiyotlari jamlanmasidir. Milliy moliya tizimini pul massasini mobilizatsiya qiluvchi, uni taqsimlovchi va xalq xo'jaligining aniq belgilab olingan sohalarini moliyalashtiruvchi moliyaviy tashkilotlar tashkil qiladi.²⁰

Xalqaro aloqalarning rivojlanishida moliyaning roli quyidagi yo'nalishlarda namoyon bo'ladi:

- 1) Xalqaro hamkorlikning turli yo'nalishlarini moliyalashtirish uchun zarur bo'lgan moliyaviy resurslarni jalb qilish va manbalarni izlab topish;
- 2) Xalqaro integratsion jarayonlarni tartibga solish;
- 3) Xalqaro munosabatlarning har bir ko'rinishining rivojlanishini va bu munosabatlarning bevosita ishtirokchilarini rag'batlantirish.


Moliya, avvalo, eksport-import operatsiyalariga ta'sir ko'rsatadi. Uning yordami bilan jahon bozorida talab kuchli bo'lgan raqobatbardosh mahsulotlarni ishlab chiqarish rag'batlantiriladi. Moliya milliy daromadning tashqi iqtisodiy faoliyat natijasida paydo bo'ladigan qismining shakllanishiga shart-sharoit yaratib beradi.

Moliyaning xalqaro aloqalar taraqqiyotiga ta'sirining yana bitta yo'nalishi xorijiy investorlar mablag'larini jalb qilish hisoblanadi. Chet el investitsiyalari

²⁰ Haydarov M. Xalqaro moliya bozorlari taraqqiyoti globallashuv jarayonida. – T.: Fan, 2003.

xorijiy investor-davlatlar, xorijiy tijorat tashkilotlari, xalqaro kompaniyalar mablag'larini iqtisodiyotning turli sohalarda faoliyat yuritadigan obyektlarning qurilishi uchun jalb qilish ko'rinishida hayotga tatbiq etiladi.

1.2.1-rasm



Manba: World Bank statistical report (1990, 1995, 2000, 2005, 2006, 2007, 2008, 2009, 2010, 2011, 2012-2 quarter)

1.2.1-rasmga korporativ aksiyalar savdosi jahon moliya bozorining asosiy qismini tashkil qiladi, bundan tashqari davlat obligatsiyalari savdosi ham yillar davomida muqobil ravishda turgan (2007-yilda moliyaviy-iqtisodiy inqiroz arafasida keskin ko'tarilishni hisobga olmaganda).

Kreditlash shartlari asosida yaratilayotgan tashkilot va obyektlar milliy boylik sifatida mamlakat hududida qoladi. Xorijiy tadbirkorlarning o'z firmalari fondi hisobidan, shuningdek, chet el davlatlari byudjetidan moliyalashtirilayotgan tashkilotlar hamkorlikdagi tashkilot va xorijiy yuridik shaxs sifatida faoliyat yuritadi.

Chet el investitsiyalari mamlakat iqtisodiyoti rivojlanishini ta'minlaydi va jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashuviga sharoit yaratadi.

Global iqtisodiy aloqalar rivojlanishi jarayonida butun jahon moliya tizimining rivojlanishi eng mukammal va zamonaviy jarayonlardan biri hisoblanadi. Bu tizim davlatlararo moliyaviy munosabatlarning chuqurlashuvi va

davlatlar o`rtasida yanada mustahkamroq bo`lgan moliyaviy munosabatlar tizimining tashkil topishi natijasi hisoblanadi.

1990-yillar oxiriga kelib, jahon iqtisodiyotida bir qator muqobil o`sinh tendensiyalari vujudga keldi. Ularga moliyaviy bozorlar globalizatsiyasi va milliy iqtisodiyotlarning o`zaro bog`liqligining kuchayishini qo`shishimiz mumkin.

“Moliyaviy globalizatsiya” atamasi o`zaro bog`liq va aloqalarga kirishgan, miqyossiz bozorga to`xtovsiz integratsiyalashuvda davom etayotgan dunyo tushuniladi. Moliya sohasida banklar, moliyaviy institutlar, hukumat, markaziy banklar, qarz oluvchilar, investorlar va axborot texnologiyalarini ishlab chiqaruvchilar kabi bozor qatnashchilari moliyaviy globalizatsiyaning muhim omillariga ta`sir ko`rsatadi. O`zaro aloqaga kirishadigan omillarga quyidagilarni kiritish mumkin:

- Xalqaro kapital oqimlari;
- Portfel aktivlarini boshqarishning zamonaviy nazariyalari;
- Moliya bozori qatnashchilarining professionalligi;
- Moliyaviy innovatsiyalar;
- Raqobat;
- Kapitalning erkin harakati;
- Axborot texnologiyalari.



Bu omillarning barchasi moliyaviy globalizatsiyaning dastagi hisoblanadi. Ular doimiy o`zaro aloqada bo`lib, xalqaro iqtisodiy aloqalar taraqqiyotiga ta`sir qilishadi.

O`tgan 10-15 yil davomida xalqaro kapital bozorida kreditlar miqdorining o`sinh sur`ati tashqi savdo hajmidan 60%ga, jahon YaIMidan 130%ga oshib ketdi. Xalqaro investor-tashkilotlarning soni oshib bormoqda.²¹

²¹ World Trade Organization. Main indicators. Statistical Outlook for 2013.

1.2.1-rasm

Global moliya tizimining hajmi.




Manba: "World Bank statistical yearbook" ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlangan.

1.2.1-rasmida global moliya tizimidagi o'sish dinamikasi keltirilgan bo'lib, moliya tizimining barcha sohalarida o'sish kuzatilgan. Bu jahondagi milliy xo'jaliklar o'rtasidagi savdo hajmining oshayotganidan dalolat beradi.

Moliyaviy bozorlar globalizatsiyasi ham muhim ahamiyatga ega. U ichki va xalqaro moliyaviy bozorlar o'rtasidagi to'siqlarni yo'qotish va alohida sektorlar o'rtasida ko'plab aloqalarning rivojlanishi bilan bog'liq. Haqiqatdan, kapital ichki

moliyaviy bozordan tashqi moliyaviy bozorga (va aksincha) global darajada erkin harakatlanishi kerak. Kapital daromad va ishlab chiqarish mahalliy darajadagidan ko`ra yuqori bo`lgan bozorga harakat qilishi zarur²².

1.2.2-rasm



manba: "World Bank statistical yearbook" ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlangan.

1.2.2-rasmga ko`ra dunyo markaziy banklari oltin valyuta zahiralarining o`sinh hajmi ko`rsatilgan bo`lib, bu kabi yuqori o`sinh sur`atlariga moliya sohasida amalga oshirilgan eksportga yo`naltirilgan tovarlar ishlab chiqarilishini rag`batlantirish siyosati ham ta`sir o`tkazgan.

Jahon moliyaviy oqimlari – bu xalqaro tovar aylanmasi va xalqaro kapital harakatiga xizmat qiluvchi pul vositalarining davlatlararo harakati. Ishlab chiqarishning moddiy jarayoni jahon moliyaviy oqimlarining o`zagi hisoblanadi. Bu oqimlarning hajmi va yo`nalishiga bir qator omillar ta`sir qiladi:

- Iqtisodiyotning ahvoli;
- Savdoning o`zaro erkinlashtirilishi;
- Iqtisodiyotning tarkibiy qaytatuzilishi.

²² Haydarov M. Xalqaro moliya bozorlari taraqqiyoti globallashuv jarayonida. – T: Fan, 2003.-155b.

Jahon moliyaviy oqimlari jahon bozorining raqobatga kirishayotgan subyektlari o'rtasidagi Tovar va xizmatlar harakati hamda pul kapitalining mamlakatlararo qayta taqsimlanishiga xizmat qiladi.

Jahon moliyaviy oqimlarining harakati quyidagi asosiy yo'nalishlarda amalga oshiriladi:

- 1) tovar va xizmatlar oldi-sotdisiga valyuta-kredit va hisobli xizmat ko'rsatish;
- 2) asosiy va aylanma kapitaldagi xorijiy investitsiyalar;
- 3) qimmatli qog'ozlar va turli moliyaviy instrumentlar bilan operatsiyalar;
- 4) valyuta operatsiyalari;
- 5) milliy daromad qismini byudjet orqali rivojlanayotgan mamlakatlarga yordam va xalqaro tashkilotlarga davlat to'lovlari shaklida qayta taqsimlash va boshqalar.

Globalizatsiyaning sezilarli ta'sirlaridan biri to'g'ridan-to'g'ri jahon moliya tizimiga ta'sir ko'rsatuvchi va uning moliyaviy arxitekturasini yaratuvchi yangi xalqaro moliya-kredit munosabatlarini shakllantirish hisoblanadi.²³ Shu bilan bir qatorda ilmiy tadqiqotlarning tahlili yetakchi chet davlatlardagi kabi mahalliy olimlarga ham "jahon moliya tizimi" atamasini global, mintaqaviy va milliy miqyosda moliyaviy munosabatlarni boshqarishning yagona majmuasi sifatida shakllantirishga imkon yaratdi. Jahon moliya tizimini tartibga solish, uni nazorat qilish va mamlakatlar o'rtasidagi moliyaviy munosabatlarni barqarorlashtirish xalqaro iqtisodiy tashkilotlar orqali amalga oshiriladi. Aynan moliya munosabatlari bilan xalqaro iqtisodiy tashkilotlarning xalqaro moliya tashkilotlari shug'ullanadi.

Xalqaro moliya tashkilotlari – faoliyat doirasi va xususiyati, a'zolar tarkibi, vazifalaridan kelib chiqadigan ixtisoslashgan hukumatlararo tashkilotlar²⁴.

Tashkil etish asoslari:

- jahon xo'jalik aloqalari globallashtirishning kuchayishi;

²³ Vahobov A. V., Malikov T. S. Moliya. Darslik. – Toshkent: "Noshir", 2011.

²⁴ M.S. Mirsaidov. "Xalqaro iqtisodiy munosabatlar". O'quv qo'llanma-T.: "IQTISOD-MOLIYA", 2006, 55-bet.

- valyuta-moliya munosabatlarini davlatlararo tartibga solishning rivojlanishi;
- jahon valyuta tizimi barqarorligi, xalqaro hisob-kitoblar va xalqaro kreditlash muammolarini birgalikda hal etish zaruriyati.

Xalqaro moliya tashkilotlarining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- jahon hamjamiyatining xalqaro valyuta-moliya munosabatlarini barqarorlashtirish maqsadidagi sa'y-harakatlarini birlashtirish;
- davlatlararo valyuta, valyuta hisob-kitobi va valyuta-kredit munosabatlarini tartibga solishni amalga oshirish;
- jahon valyuta, hisob-kitob va kredit siyosati strategiyasini va amalga oshirish taktikasini ishlab chiqish.

Xalqaro moliya tashkilotlarining Xalqaro valyuta fondi, Umumjahon banki guruhi, Xalqaro hisob-kitoblar banki, Mintaqaviy rivojlanish banklari va Xalqaro kreditorlar klublari kabi shakllari mavjud.

Xalqaro Valyuta Fondi (XVF) – xalqaro valyuta-kredit tashkiloti bo'lib, BMTning ixtisoslashtirilgan tashkiloti maqomiga ega. Valyuta-kredit sohasini tartibga solib turuvchi davlatlararo tashkilot tuzish g'oyasi “buyuk depressiya” paytida tug'ildi. U 1945-yilning dekabr oyidan boshlab o'z faoliyatini boshladi. XVF Nizomga binoan, qaysi bir davlat qanday ijtimoiy tuzumda ekanligi, iqtisodiy tizimi qanday ekanligidan qat'iy nazar biron bir cheklov yo'q. Hatto XVFga a'zo bo'lish uchun jiddiy cheklovlar ham yo'q.

1.2.1-jadval

Kreditlash mexanizmi yoki siyosati	To'lov shartlari	Muddati (yil hisobida)		
		Eng uzoq muddat	Kutilayotgan muddat	Davriylik
“Stend bay” krediti	Asosiy stavka + marja	3,25 5	2,25 4	Har kvartalda
Kengaytirilgan kreditlash	Asosiy stavka + marja	4,5 0	4,5 7	Har yarim yilda
Qoplovchi moliyalash	Asosiy stavka	3,25-5	2.25	Har kvartalda

Favqulodda yordam	Asosiy stavka	3,25-5	–	–
Qo`shimcha zahiralarini qoplash	Asosiy stavka + marja	2,5-3	2-2,5	Har yarim yilda
Kambag`allikka qarshi va iqtisodiy o`sinhni qo`llab-quvvatlash	Yillik 0,5%	5,5-10	–	–

manba: IMF Statistical Report 2012

Umumjahon banki guruhiga Xalqaro tiklanish va taraqqiyot banki (XTTB), Xalqaro taraqqiyot assotsiatsiyasi (XTA), Xalqaro moliya korporatsiyasi (XMK), investitsiyalarni ko'p tomonlama kafolatlash Agentligi (MIGA) va Investitsion nizolarni tartibga solishning xalqaro markazi (ICSID) kiradi. XTTB, XTA va XMK Jahon bankini tashkil etadi.

Xalqaro moliyaviy korporatsiya (XMK) birorta bankka tegishli bo'lmagan o'zining xususiy pul mablag'lariga ega bo'lib, 1956-yildan boshlab mustaqil yuridik shaxs sifatida faoliyat ko'rsatib kelmoqda. U o'z boshqaruvchilariga va ishchilariga, pul mablag'lariga ega. XMK yuqori rentabelli xususiy korxonalarga hukumat tomonidan kafolatlanmagan kreditlarni berish bilan xususiy sektorni rivojlantiradi.

Uning paydo bo'lish maqsadlari:

- Hukumat tomonidan kafolatlanmagan mablag'ni jalb qilish yo'li bilan xususiy korxonalarni rivojlantirishda moliyaviy yordam ko'rsatish;
- Ichki va tashqi kapital investitsiya imkoniyatlarini boshqarishning ilg'or usullari bilan uyg'unlashtirish;
- Bu tashkilotga a'zo-mamlakatlar xususiy mablag'larni ishlab chiqarish korxonalariga kapital mablag'larni jalb qilish uchun xususiy mablag' oqimini rag'batlantirish.

Moliyalashtirish manbai bo'lib XMKga a'zo davlatlarning a'zolik badallari va foyda tushumi hisoblanadi. XMK xususiy sektorining barqaror rivojlanishiga quyidagi yo'llar orqali ta'sir ko'rsatadi:

- Rivojlanayotgan davlatlarda xususiy sektorni moliyalashtirish orqali;
- xalqaro moliya bozorida rivojlanayotgan mamlakatlarning xususiy kompaniyalariga moliyaviy mablag'larni jalb qilishida yordam ko'rsatish;
- Davlatlar va korxonalarga konsultatsion (maslahat) va texnik yordam ko'rsatish.

XMKning siyosatini belgilab beruvchi va investitsion loyihalarni tasdiqlovchi 175 ta a'zo davlat mavjud. XMKning korporativ vakolati Boshqaruv Kengashiga tegishli. Bu Kengash tarkibiga a'zo mamlakatlar tomonidan tayinlangan vakillar kiradi. Korporatsiyaning mablag'lari a'zo mamlakatlar tomonidan to'langan badallar hisobidan tarkib topadi, bu davlatlarning ovoz berish huquqi tegishli ulushlariga qarab belgilanadi. XMKning Nizom kapitaliga qo'yilishi mumkin bo'lgan summa 2,45 milliard dollarni tashkil etadi. Boshqaruvchilar Kengashi vakillarining ko'pchiligi o'z vakolatlaridan tashqari XTTB direktorlaridan va XMKga a'zo davlatlar vakillaridan iborat Direktorlar kengashini boshqaradi. Barcha loyihalar Direktorlar kengashi tomonidan ko'rib chiqiladi.

Korporatsiya tomonidan qilinadigan investitsiya korporatsiyaning shaxsiy kapitali orqali moliyalashtiriladi. Aktsionerlarning qo'llab-quvvatlashi va a'zolik badalining XMK kapitaliga kelib tushishi pul mablag'larining katta qismini xalqaro moliyaviy bozorga jalb qilish imkonini bermoqda. Bu ish - kreditlash uchun zarur bo'lgan umumiy moliyaviy resurslar hajmining 80% foiziga teng eng yuqori A.R.A reytingiga ega obligatsiyalar chiqarish, XMK davlat obligatsiyalarini chiqarish, yoki xususiy qimmat-li qog'ozlarni jalb qilish, XTTB ning zayomlari 20% jalb qilish orqali amalga oshirildi. Odatda, XMK investitsiyalashni 1milliondan 100 million dollargacha bo'lgan hajmda amalga oshiradi.

II BOB. GLOBALLASHUV SHAROITIDA XITOIY IQTISODIYOTI RIVOJLANISHIDA MOLIYA-KREDIT TIZIMINING HOZIRGI HOLATI VA UNING AHAMIYATI

2.1 Xitoyda moliya-kredit tizimida amalga oshirilgan islohotlarning asosiy yo`nalishlari.

Xitoy Xalq Respublikasi (XXR) – hududi jihatidan dunyo mamlakatlari orasida uchinchi o‘rinda turadi. Uning umumiy maydoni – 9,6 mln. kv. km. Aholisi 1 mlrd. 397 mln. kishidan ziyod. Mamlakatda 50 dan ortiq millat vakillari yashaydi. Xitoy millatiga mansub aholi esa 94 %ni tashkil etadi.

Xitoyning uch ming yillik tarixi guvohlik berishicha, uzoq yillar o‘ta qoloq “hayot qurib podsholik”ka bo‘ysungan xitoyliklarning kattagina qismi milodiy yillarga kelib sivilizatsiyalashayotgan yangi hudud aholisiga yaqinlasha borgan. Natijada hech qaysi davlat tarixida uchramaydigan holatda, ya’ni qisqa davrda varvarlar (madaniyatdan chetda qolgan chet elliklar) kabilari turmush tarzini yaxshilovchi an‘analar va madaniyatli hayot uchun «tez asirga tushgan» lar sirasiga kirgan. Hududlararo madaniyatli turmush kechirishga bo‘lgan o‘zaro ko‘maklar tufayli Xitoyning umumiy hududi kengayib borgan.

Hozirgi Xitoy 26 ta provinsiya holda uchta markaziylashgan shaharlardan (Pekin, Shanxay, Tyanzin) tarkib topgan. Xitoy iqtisodiyoti umumiy mulkchilik tamoyillari asosida rivojlanmoqda. Bu yerda hali ham besh yillik davlat rejalari mavjud bo‘lib, taraqqiyot shu reja asosida yuksalmoqda.

Xitoyda iqtisodiy islohotlar 1978-yildan amalga oshirila boshlandi. Islohotlardan ko‘zlangan asosiy maqsad har bir kishi boshiga olinadigan daromadni o‘rtacha rivojlangan mamlakatlar darajasiga yetkazilishidan iborat edi. Bu islohotlarda quyidagi muammolarni bartaraf etish mo‘ljallandi:

- rejali mahsulot tayyorlashda to‘liq aholi ehtiyoji uchun mahsulot
- ishlab chiqarishdan yarim ehtiyojni qondiruvchi tovar ishlab chiqarish tizimiga o‘tish;

- agrar sohadan sanoatlashuvga, qishloq ishlab chiqarishidan esa posyolka va shahar turiga o'tish;
- "o'z kuchiga tayanish" yo'nalishidan "ochiq eshiklar" siyosatiga o'tish;
- "axloqiy prinsip"lar tashkiliy tuzilmasidan haq-huquqlarga ega tuzilmalarga o'tish.

Moliya tizimidagi islohotlar.

Xitoy moliya tizimida islohotlar 1980-yillar o'rtalarida o'tkazilgan. Islohotlar natijasini oldingi moliyaviy tizimi va uning islohotlardan so'nggi holatini taqqoslash orqali bilib olishimiz mumkin. Moliyaviy vositalarni jang'arish va taqsimlash davlat byudjeti orqali amalga oshiriladi, ularning asosiy manbalari esa tashkilotlarning sof foydasi hisoblanadi (oxirgi yillarda tashqi savdoning roli tobora oshmoqda). Lekin moliya orqali boshqarish tizimining o'zi islohotdan keyin mavjud davlat byudjeti instrumentidan tashqari yana bitta mexanizm – tashkilotlarning xo'jalik faoliyatiga ega bo'ldi.

Ko'pchilik xitoylik olimlar XXRda 1976-yildan 1985-yilgacha amalga oshirilgan moliyaviy islohotlarni 3ta davrga bo'lishadi.

Birinchi uch yillik Xitoy moliyaviy islohotlarining tajribaviy-tayyorgarlik bosqichi bo'ldi. Bu davrda moliyaviy o'zaro aloqalarning turli shakllari amaliyotda sinaldi. Amalda ko'rilgan moliyaviy munosabatlarning turli shakllari quyidagilar:

- a) Markazga bo'ysunuvchi shaharlar va provinsiyalarning foyda va zarari umumiy byudjetda yig'ilib, ayrim zarar ko'rgan hududlardagi zarar miqdori byudjetdan qoplangan, foydaning bir qismi esa mahalliy hukumat vakilligining ixtoyoriga topshirilgan
- b) Foyda va zarar miqdori solishtirilib, markazga ketadigan qism natijaga qarab belgilangan, bu tartib mahalliy byudjetdagi xo'jalik subyektlarining rag'batlantirilishi darajasi birinchi tizimdagiga nisbatan kam bo'lgan
- c) 1977-yilda Tszyansu provinsiyasida tajriba sifatida boshlangan uchinchi shakldagi moliyaviy islohot o'ziga xosligi bilan ajralib turadi. Bu

shaklda markaziy byudjetga ajratiladigan foyda hajmi tarixiy shakllangan ko`rsatkichlar bo`yicha belgilanadigan bo`ldi.

Markaz va hududiy hukumat organlari o`rtasidagi moliyaviy munosabatlarning shakllanishi ikkinchi bosqichida o`ziga xoslik “Foydani zarardan ayirish bo`yicha aniqlanadigan bosqichma bosqich majburiyat” tizimi ishlab chiqilib, realizatsiya qilingani bilan ajralib turadi. Bu haqda XXR davlat kengashining 1980-yilda qabul qilingan qarori qabul qilingan. Bu qarorga muvofiq markaziy va mahalliy byudjetning joylardagi vakolat darajalari tashkilotlarni xo`jalik bo`ysunish prinsipiga muvofiq aniq belgilab qo`yildi. Markaziy byudjetga ketadigan foyda qismi, sanoat korxonalariga ajratiladigan dotatsiyalar hajmi, mahalliy va markaziy byudjet hisobiga taqsimlanadigan foyda darajasi 5 yil mobaynida o`zgarmasdan qoldi. Bundan tashqari rejadan tashqaridagi dotatsiyalar ajratilishinnig qisqargani bois davlat byudjeti muqobilligi saqlanib qolindi. Bu dotatsiyalar oldin davlat byudjetidagi mablag`larni kamaytirib yuborar edi. Bu tadbirni amalga oshirilishi davlat byudjetini muqobil ravishda ushlab turishidan tashqari tashkilotlarga moliyaviy moliyaviy mustaqillik berilishini tezlashtirdi.

1984-yildagi barcha foydaga bir xil soliq mexanizmini ishlab chiqilisi mazkur tizimni tugatilishiga olib keldi. Bu tizim soliq islohotigacha bo`lgan davr mobaynida muvaffaqiyatli amalda bo`ldi. Umuman olganda, bu bosqichdan Xitoy 1978-yilda xususiy jamg`armalarni foyda ulushidan shakllantirish bilan birga bu foydani tashkilotlar, mahalliy va markaziy byudjetlar o`rtasida taqsimlash zarurati tug`ildi. Bu taqsimotning shu paytgacha ishlab chiqilgan variantlari soliq qonunchiligi ostiga olindi.

Xitoy iqtisodiyotini erkinlashtirishda XXR bank tizimini isloh qilishning asosiy yo`nalishlari. XXR bank tizimi islohotini tahlil qilishni 1979-yildan boshlab Xitoy bank tizimining shakllanishini davrlashtirishdan boshlash zarur. Aynan shu yildan boshlab mamlakatda ikki pog`onali bank tizimini tashkil etish boshlangan.

Birinchi bosqich: 1979-1984-yillar.

Bu davrda Xitoyda bir pog`onali bank tizimidan ikki pog`onali tizimga o`tish sodir bo`lgan. Birinchi pog`onada 1983-yilda rasman Markaziy bank maqomini

olgan Xitoy Xalq banki (XXB) turadi. Ikkinchi pog'onada esa XXB tarkibidan chiqarilganidan keyin mamlakat bank tizimida ma'lum rolni ijro eta boshlagan 4ta davlat tijorat banklari ("katta to'rtlik" banklari) joylashadi: Xitoy banki, Xitoy savdo-sanoat banki, Xitoy Xalq qurilish banki (hozirda Xitoy qurilish banki) va Xitoy qishloq xo'jalik banki.

Ikkinchi bosqich: 1985-1992-yillar.

Ushbu bosqichda Xitoy bank tizimi mamlakat iqtisodiyotini moliyalashtirishning muhim manbai bo'lib xizmat qildi. 1985-yildan davlat tashkilotlari byudjet orqali emas, balki bank kreditlari orqali moliyalashtirila boshlandi.

Davlat tashkilotlarining qayta tuzilish jarayonida jiddiy ijtimoiy muammolardan qochish maqsadida banklarga aholiga kerakli miqdorda kreditlar ajratish tayinlab qo'yilgan. Buning natijasida banklar daromadlilik va moliyaviy samaradorlikni hisobga olib, mablag'larni taqsimlay olishmadi. Oqibatda bank tizimida yomon qarzarlar to'plana boshlandi.

Islohotlarning ushbu bosqichida banklararo raqobat muhiti shakllana boshlandi. Mahalliy hokimiyat vakillari va sanoat guruhleri hamkorligida aksiyadorlik tijorat banklari tashkil etila boshlandi. O'zining kredit faoliyatini rejalashtirishda aksiyadorlik tijorat banklari "katta to'rtlik" banklari singari milliy va mintaqaviy taraqqiyot rejalariga muvofiq ish olib borishlari kerak edi.

Uchinchi bosqich: 1993-1997-yillar.

1992-yilda XKPning XIV syezdida "Sotsial bozor iqtisodiyoti" konsepsiyasi qabul qilinganidan keyin mamlakat iqtisodiyotida bozor mexanizmlari keng joriy bo'la boshladi. 1993-yil dekabrda XXR Davlat kengashi amalga oshirilayotgan islohotlar bilan bir qatorda moliya tizimini ham isloh qilish to'g'risida qaror qabul qildi.

1995-yilda "Tijorat banklari to'g'risida"gi qonun qabul qilingan vaqtdan boshlab davlat tijorat banklarini tijoratlashtirish jarayoni boshlandi va bu banklar o'z faoliyati natijalariga to'liq javobgarlikni oladigan bo'lishdi. Amaliyotda banklarning qiziqishiga qarshi ravishda siyosiy maqsadlarga ko'ra kreditlar

ajratish, birinchi navbatda, XXR bank tizimida yomon qarzlarning vujudga kelishiga olib keldi.

To'rtinchi bosqich: 1998-2002-yillar.

1998-yildan boshlab XXRda 1985-yilda boshlangan siyosiy maqsadlarga yo'naltirilgan kreditlar ajratish oqibatida shakllangan yomon qarzlarning jiddiy muammolari ochiq tarzda tan olinib boshlandi. XXBning baholariga ko'ra, 1998-yilning boshida "katta to'rtlik" banklarining yomon qarzlari 1400 mlrd yuan atrofidagi summani tashkil etdi, bu 1998-yil XXR YaIMining 19%iga to'g'ri keladi.

Bank tizimi ahvoli qoniqarsiz deb tan olindi; milliy banklarning tanazzulga uchrashiga olib keluvchi belgilarini yo'q qilishga yo'naltirilgan bank tizimi islohotlari dasturlarini qayta ishlash boshlandi. Banklarni qayta kapitallashtirish davlat byudjeti mablag'lari hisobidan o'tkazilgan. "Katta to'rtlik" banklarining yomon qarzlari bilan bog'liq muammolarini hal etish uchun 1999-yilda aktivlarni boshqaruvchi kompaniyalar(ABK) tashkil etildi. 1999-yilda davlat 4 ta tijorat banklariga 270 mlrd yuan (33 mlrd dollar) mablag` ajratdi. ABKlar yomon qarzlarni 168,3 mlrd dollar (YaIMning 8%i) ga sotib olishdi.

Beshinchi bosqich: 2003-yildan hozirgacha.

Islohotlar doirasida amalga oshirilgan oldingi tadbirlar kutilgan natijalarni bermagach, 2003-yilda islohotlar strategiyasida tubdan o'zgarishlar sodir bo'ldi – davlat banklarini chet el strategik investorlarini qabul qilish va ularning o'rnida qayta tashkil qilinadigan aksiyadorlik banklarini jahon fond bozorlariga sotuvga chiqarish to'g'risida qaror qabul qilindi. Davlat banklarini aksiyadorlik banklariga aylantirish va ularga chet el strategik investorlarning mablag'larini jalb qilish, jahon fond bozorlariga birlamchi aksiyalarini sotuvga chiqarish to'g'risidagi qaror qabul qilindi. 2004-2005 yillarda hukumat Xitoy Qurilish Banki, Xitoy Banki, Xitoy Savdo Sanoat Banki va Xitoy Kommunikatsiya bankiga chet el investitsiyasini jalb qildi. 2010-yilga kelib esa bu banklar qatoriga Xitoy Qurilish Banki ham qo'shildi.

2003-2008 yillar oralig`ida asosiy davlat banklariga jami uch marta 80 mlrd dollar miqdoridagi pul mablag`lari kiritilishi amalga oshirildi. Banklarning 162 mlrd dollarga teng yomon qarzlar 2003-2005 yillarda ABK larga topshirildi. Xususan, Xitoy Qurilish Bankining 120 mlrd dollarlik yomon qarzi Markaziy bank va Moliya vazirligi majburiyatlari hisobiga foizsiz qayta moliyalashtirish orqali to`lab berildi.²⁵

Xitoy banklari tomonidan xalqaro fond bozoridagi IPO²⁶ tadbirini o`tkazishi natijasida (2005-2006 yillarda Xitoy Savdo Sanoat Banki, Xitoy Banki, Xitoy Kommunikatsiya Banklari va 2010-yil Xitoy Qurilish Banki IPO tadbirini o`tkazganlar) ularning ustav kapitali hajmi 30 dan 80% gacha ko`paydi, mijozlar haqidagi axborotni taqdim etish bo`yicha tartib takomillashtirildi, egalik sohasida katta o`zgarishlar ro`y berdi. Shunga qaramay hozirgi kunda ham Xitoyning yirik banklaridagi katta davlat ulushi saqlanib qolgan va davlat bu banklar boshqaruvida hal qiluvchi ahamiyatga ega, hukumat esa o`z navbatida pul-kredit siyosatini belgilab beradi.

Isloh qilinayotgan banklar 2004-2006-yillar davomida o`tkazilgan restrukturizatsiya jarayonlari natijasida o`z aktivlari sifatini oshirishga erishishdi – yomon qarzlarining berilgan kreditlarning umumiy hajmidagi ulushi “katta to`rtlik” banklarida 2 barobarga, aksiyadorlik tijorat banklarida 3 barobarga qisqardi. 2010-yil oxirida bu ko`rsatkich bank tizimi bo`yicha 1,13%ni tashkil etib, dunyo standartlari darajasiga yetdi. Xitoy Qurilish bankini restrukturizatsiya qilish jarayonida yirik hajmli yomon qarzlar ro`yxatdan chiqarildi.

Xitoy bank tizimida nazorat va tartibga solish tizimini yaxshilash maqsadida quyidagi tadbirlar amalga oshirildi:

- kreditlarni 5 ta kategoriya bo`yicha xalqaro tasniflash o`rnatildi (Bazel qo`mitasi standartlariga mos ravishda);
- Bank nazorati va tartibga solish bo`yicha Komissiya (BNTK) tashkil etildi;

²⁵ http://russian.china.org.cn/news/txt/2005-06/01/content_22689247.htm

²⁶ Aksiyalarning birlamchi fond bozoriga chiqarilishi (ingl. Initial Public Offering)

- Markaziy bank (XXB) va BNTK o`rtasida Xitoyning nazorat tizimidagi vakolatlari taqsimlandi hamda ular faoliyati o`zaro muvofiqlashtirildi.

Xitoy bank tizimida moliyaviy erkinlashtirish jarayoni. Xitoyda majburiy zahira normalaridan bank tizimining likvidligini boshqarish vositasi sifatida foydalanilishi 1990-yillarda amal qila boshladi. Foiz stavkalarini erkinlashtirish bo`yicha birinchi chora-tadbirlar 1996-yilda amalga oshirildi. Bozor mexanizmlariga o`tishda foiz stavkalarini o`rnatishni 2007-yilda amalga oshirish mo`ljallangan edi, biroq u o`tkazilmadi va yaqin kelajakda ham amalga oshirish rejalashtirilmagan. Kreditlar ajratish hajmini nazorat qilshda hozirda ham ma`muriy choralar qo`llaniladi.

Moliyaviy erkinlashtirish jarayonining natijasida bank tizimi faoliyatiga davlat aralashuvini qisqarishi ro`y berdi. Lekin davlatning bank sohasiga aralashuvi xalqaro standartlarga nisbatan kattaligicha qolmoqda.²⁷

2002-yilgacha Xitoy bank tizimi xalqaro raqobat uchun eng yopiq sohalardan biri edi. Shu yo`l bilan raqobatbardosh va samarador bo`lmagan milliy bank sektori himoya qilinar edi. 2002-yil yanvarda Jahon savdo tashkiloti (JST)ning qabulida Xitoy 5 yil davomida chet el banklari uchun barcha cheklovlarni olib tashlash va xorijiy hamda Xitoy banklarini bir xil tartibga solish rejimi bilan ta`minlash majburiyatini o`z zimmasiga oldi.

Xitoy bank tizimining shakllanishi davrida tarixiy jarayon oqibatida va rivojlangan bank tizimiga ega davlatlarda ham mavjud bo`ladigan muammolarga to`qnash keldi. 80-yillarga kelib XXR bank tizimi o`z iqtisodiyotining asosiy moliyalashtirish manbaiga aylanib qoldi, bu esa o`z navbatida bir qator muammolarni vujudga keltirdi. Xitoy bank tizimi shakllanishida yana bir muammolar manbai keng qamrovli ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni yechish ham banklarga bog`lanib qolganligi oqibatida yuzaga keldi. Bu jarayonlar natijasida islohotlarning asosiy taraqqiyot yo`nalishlarini belgilab olish va ularni realizatsiyasi bilan bog`liq qiyinchiliklar yuzaga chiqdi. Bank tizimi taraqqiyoti

²⁷ Котляров Н.Н. Важнейшие аспекты взаимодействия КНР с ВТО//Мировое и национальное хозяйство. - 2007.-№3

siyosiy bosim ostida yanada qiyinroq kechdi. Chunki siyosiy hokimiyat iqtisodiy rivojlanishning asosiy moliyaviy manbai sifatida banklarni belgilab olgan edi.

1985-yildan boshlab davlat tashkilotlari byudjet moliyalashtirilishidan bank-kredit moliyalashtirilishi tizimiga o'tishi bilan XXR banklari "ikkinchi byudjet" rolini bajara boshadi. Banklar kreditlarni, birinchi navbatda siyosiy maqsadlarga ko'ra yagona kreditlash rejasi asosida taqsimlay boshladi. Zarar ko'rib ishlaydigan va siyosiy maqsadga ko'ra kredit bilan ta'minlanadigan davlat sanoat tashkilotlari aholining katta qismini ish bilan ta'minlab turish imkonini bergan (1980-yillarda shaharda yashovchi aholining 70-80% davlatga tegishli bo'lgan sanoat korxonalarida ishlagan) bu esa o'z navbatida vujudga kelishi mumkin bo'lgan ijtimoiy muammolarni oldini oldi. Lekin bu siyosiy kreditlar oqibatida banklar 1990-yil o'rtalariga kelib iqtisodiy jihatdan samarali bo'lgan milliy iqtisodning ayrim sohalarini moliyalashtira olmay qoldi. Bundan tashqari bank tizimida ishlamayotgan aktivlar va banklarning foydasi keskin tusha boshladi. Natijada bank tizimidagi bu muammolar milliy iqtisodiyotning rivojiga to'sqinlik qiladigan faktorga aylana boshladi.

Bank tizimini isloh qilinishidagi bu kabi muammolar islohotlar boshlanishi bilan vujudga kelgan edi, chunki hukumat banklarni tijorat yo'nalishida faoliyat yuritishiga ruxsat berish bilan birga ularni davlat tashkilotlarini imtiyozli ravishda kreditlashni ham talab qila boshladi. Natijada Xitoy bankalarida katta miqdordagi yomon qarzlar yig'ilib qoldi. Bu qarzlar davlatdagi moliyaviy barqarorlikga real xavf sola boshladi. 1997-yildagi Osiyo moliyaviy inqirozidan so'ng XXR hukumati o'z bank tizimining qoniqarsiz ahvoldaligini anglab yetdi, bunga islohotlar boshlangan yillarda qabul qilingan siyosiy qarorlar sabab bo'lganligi va bank tizimi jiddiy islohotlarga muhtoj ekanligi aniqlandi.

Faqat 2003-yilga kelibgina XXR tijorat davlat banklarining egalik sohasida jiddiy islohotlar o'tkazishga qaror qabul qildi, bu islohotsiz Xitoyning bank tizimi rivojlanmasligi aniq edi. Chet el investitsiyalarini qabul qilish, xalqaro fond bozorida o'tkazilgan IPO operatsiyalari natijasida banklardagi korporativ boshqarish, banklar faoliyati, xavflar bilan ishlash, bank xodimlarining ish

unumdorligini oshirish va bank mijozlari haqidagi ma'lumotlarni berish to'g'risidagi tartiblarni yanada takomillashtirilishi banklar faoliyatini tubdan sifat jihatdan yaxshiladi. Banklarning ustav kapitali miqdori ham oshdi. Yuqoridagi islohotlarga qaramay asosiy Xitoy banklaridagi davlat ulushi hozigi kungacha katta miqdorni tashkil etadi va davlat hozir ham kredit berish tartibini belgilashda katta ahamiyatga ega.²⁸

Davlat bankining boshqaruv personali hozirgi kunda juda qiyin vaziyatda turibdi. Bir tomondan oslohotlar tartibini joriy qilish bo'yicha talablar ularga bosim o'tkazayotgan bo'lsa, ikkinchi tarafdin bu banklarga mustaqil faoliyat yuritish imkoni berilsa foydalilik darajasi, o'z kapitaliga egalik darajasi bilan bozor iqtisodiyoti sharoitlariga o'tishga va Xitoyda toboro ko'payib borayotgan chet el banklari bilan raqobat qilishga tayyor. Xitoyning eng yirik to'rtta banki oldida o'zlari egallagan yangi pozitsiyalarini ushlab turish va faqat foydaga yo'naltirilgan, zararlardan holi faoliyat yo'nalishiga tushib olishdek katta ish turibdi.


Ayrim banklar hozirda rentabel va raqobatbardosh, shakllanib kelayotgan moliya bozorida o'z o'rniga ega. Islohotlardan ko'zlangan asosiy maqsadlardan biri ham bank sektorining rentabel faoliyatini ta'minlash hisoblanadi. Bank ishi yo'nalishida faoliyat olib borishning yangi metodlari izlanmoqda, xususan Xitoydagi banklararo hamkorlik sohalarida bu ishlar jadallashgan.

Xitoy bank tizimini isloh qilish mamlakatni JST ga a'zo bo'lishi zarurati va unga bog'liq bo'lmagan boshqa sabablarga ko'ra 2001-yildan ancha oldinroq belgilab qo'yilgan edi. Bu bank tizimining isloh qilinishi to'g'risidagi konsepsiyada ham o'z aksini topgan. Xitoyning yangi hukumati moliya tizimi bilan birga bank tizimini ham islohotlarning asosiy obyekti sifatida belgilab oldi. JST tartiblarini qabul qilinishi hukumat tomonidan islohotlardagi siyosiy ahamiyatni kuchsizlantirish yoki hukumatni moliya sektoridagi pozitsiyalariga nisbatan xavf sifatida emas balki, islohotlarni yanada samaraliroq o'tishida va ularni tezroq hayotga tadbiiq etishda chetdan keladigan yordam sifatida qaramoqda.

²⁸Ли Ливэй Вступление Китая в ВТО и иностранные банки // "Социально-гуманитарные знания 2006".
Дополнительный выпуск -М., 2006

Xitoy JST shartlari asosida “ochiq eshiklar” siyosatini hayotga tadbqiq etish va islohotlar jarayonini yanada tezlashtirishni rejalashtirgan. JST mutaxassislari fikricha, yaqin kelajakda Xitoy bank sektori to`liq ochiq holatga o`tadi. Natijada Xitoy banklari bilan chet el banklari kuchli raqobatga kirishadi.²⁹

2.1.1-rasm



Manba: http://aric.adb.org/aric_database.php sayti ma`lumotlariga ko`ra muallif tomonidan tuzilgan.

2.1.1-rasmda Xitoydagi asosiy pul agregatlarini o`sinh ko`rsatkichlari keltirib o`tilgan. Xitoyda moliya-kredit sohasida amalga oshirilgan islohotlarni chuqurlashib borishi va jahon moliya tizimiga integratsiyalashuv jarayonini tezlashishi oqibatida M2 agreagatining hajmi oshib bormoqda.


Xitoyning JSTga a`zo bo`lib kirishi oqibatida Xitoy banklari chet el banklari bilan raqobatga kirishdi. Xitoy banklari islohotlarga yanada chuqurroq kirisha boshladi. Banklarda menejment texnologiyasi, kredit nazorati kabi ishlar yanada rivojlantirilib, faoliyat rentabelligiga erishishga qaratilgan choralar kuchaytirilmoqda. Oldin islohotlar doirasida qabul qilingan, ammo siyosiy ehtiyojlar hisobga olingan holda bajarilishi kechiktirilayotgan ishlar hayotga tadbqiq

²⁹ Портяков В.Л. О банковской сфере Китая // Деньги и кредит. - 2006. №5.

etila boshlandi. Banklar boshqaruvi avtanomlashtirildi. Shu bilan birga ayrim tashkilotlar uchun kredit olish qiyinlashdi. Jamg'armalar hajmi o'sishi oldingi vaqtdagidek baland. Kelajak yillar uchun bashorat natijalari bo'yicha jamg'armalarning yillik o'sish ko'rsatkichi 5-10% dan kam bo'lmaydi.³⁰

Arzon pullar mavjudligiga qaramasdan, Xitoy davlat banklari o'z foydasi va rentabellik darajasini oshirishning boshqacha yo'llarini izlamoqda. Bu yo'llardan biri kichik va o'rta hajmdagi hozirgacha o'z-o'zini moliyalashtirib kelgan tadbirkorlik subyektlariga moliyaviy xizmatlar ko'rsatish orqali ochilishi mumkin. Lekin eng muvaffaqiyatli tadbirkorlar uchun ham moliyaviy resurslarga yetishish oson kechmaydi. Ular banklardan kredit olish uchun xavflarni kafolatlovchi davlat kafolat fondi tomonidan qo'llab quvvatlanishi darkor. Shu sababdan kreditlarga talab miqdori hatto iste'mol kreditlarini hisobga olganda jamg'armalar o'sishiga nisbatan ham kam bo'lgan.

2.1.2-rasm



manba: "China – FinancialSectorAssessment"/The WolrdBank, November 2011 statistik ma'lumotlarga ko'ra muallif tomonidan tuzildi.

Shu sababli Xitoyning yirik to'rt banki hukumat bosimiga qaramasdan davlat tashkilotlariga kredit berish uchun yangi reyting tizimini ishlab chiqarishni

³⁰ IMF China financial sector assessment 2012

rejalishtirgan.³¹ Hozirgi vaqtda amalda bo'lgan reyting tizimi ham Xitoyning JST ga kirmasdan oldin amal qilgan reytingidan ancha ishonchliroq bo'lganligiga qaramasdan avval bu xildagi hisobotlarni banklarga hech qachon topshirmagan davlat tashkilotlarini (ba'zida bu tashkilotlar balans hisobotlarini ham qalbakilashtiradilar) yangi tizimga tez moslashadi deb ishonish qiyin.³² Bu kabi holatlarning mavjudligi tashkilotlar tomonidan islohotchilar oldiga hisobot topshirish tizimini ham takomillashtirish vazifasini qo'ygan.

Xitoyning JSTga a'zo bo'lib kirishining sug'urta, vositachilik, o'rtacha va kichik moliyaviy kompaniyalarga ta'siri. Xitoy JSTga a'zo bo'lgunga qadar undagi sug'urta, brokerlik va komission kompaniyalarning faoliyati ko'plab hal etilmagan muammolar tufayli qiyin ahvolda edi. JSTga kirgandan keyin chet el firmalarini, ularning faoliyati va geografik joylashuvini ro'yxatdan o'tkazishda cheklovlar o'rnatish mumkin emas va ularning operatsiyalarini tekshirish bilan bog'liq turli rasmiyatchiliklarni orqali faoliyatini cheklay olmaydi. Xitoy spesifikasidagi moliya tizimi butunlay qayta ko'rib chiqiladi, qonun-qoidalar xalqaro talablarga mos holda qabul qilinadi. Shu nuqtai nazardan Xitoyning JST ga a'zo bo'lib kirishi undagi moliya tizimi va moliya bozorini to'liq rivojlangan davlatlardagi standartlarga javob beradigan holatga o'tishiga rag'bat bo'lishi mumkin.

Xitoyning JST ga a'zo bo'lib kirishi oqibatida mamlakatdagi sug'urta bozorida turli xil muammolarni paydo bo'lishiga olib keldi.

Xitoydagi sug'urta bozori 1980-yillardan boshlab qayta shakllana boshlagan. 1980-yilda 20-yillik tanaffusdan so'ng Xitoyda ilk davlat sug'urta kompaniyasi tashkil etildi va bu tashkilot 1981-yilda davlat yo'nalishidagi faoliyat yo'nalishini maxsus faqat sug'urta sohasiga yo'naltirdi. Shu yildan boshlab yuqoridagi sug'urta tashkilotining provinsiyalardagi filiallari ochila boshladi. 1985-yilda qabul qilingan sug'urta to'g'risidagi qonun va 1998-yilda asos solingan Xitoy Sug'urta faoliyati nazorati qo'mitasi Xitoyda sug'urta bozorining shakllanishidagi tayanch boshlang'ich nuqta bo'ldi.

³¹ www.xinhua.cn

³² "Reforms in China" World Economic affairs 2011 financial system reforms in banking sector of China

1985-yilda qabul qilingan qonunning 71 va 77-moddalariga muvofiq sug`urta faoliyati bilan shug`ullanuvchi barcha tashkilotlar Xitoy Sug`urta faoliyati nazorati qo`mitasidan litsenziya olishi lozim. Qonunning 70-moddasiga muvofiq faqatgina ikki turdagi sug`urta kompaniyalari faoliyatiga ruxsat beriladi. Ular 100% davlat kompaniyasi yoki mas`uliyati cheklangan aksiyadorlik jamiyati ko`rinishida bo`lishi mumkin.

Qonunning 125 va 126-moddalariga muvofiq ravishda sug`urta agentlari va brokerlari faoliyatiga ruxsat beriladi.

1998-yilda asosan dengiz oldi hududlarida faoliyat olib boruvchi “Pin`an” va “Tinch Okeani” sug`urta kompaniyalariga asos solindi. 1996-yildan boshlab Xitoy Xalq Sug`urta kompaniyasi xalqaro sug`urta bozoridagi talablar doirasiga mos faoliyat yuritish shaklini olib bormoqda va bu borada katta yutuqlarga erishgan. 2002-yil holati bo`yicha Xitoyda 54 ta sug`urta kompaniyalari, 170 ta vositachilik faoliyatini olib boruvchi tashkilotlar va 70 mingdan ortiq sug`urta agentlari faoliyat olib borgan.

Mamlakat ichidagi sug`urta bozorining 95,2% uchta yirik davlat sug`urta kompaniyalari zimmasiga to`g`ri keladi. Xususan ChinaRE kompaniyasiga- 57,05%, Pin`an kompaniyasiga 28,13%, Taypinyan kompaniyasiga esa 10,07% to`g`ri keladi. Xususiy sug`urta kompaniyalari ichida eng katta ulush “Sinhua” kompaniyasiga to`g`ri keladi (1,63%).³³

Ichki bozordagi sug`urta kompaniyalari mulklaridagi ulushning 96% yirik davlat kompaniyalari hisobga to`g`ri keladi va ular quyidagicha taqsimlangan; ChinaRe – 75%, Taypinyan – 12%, Pin`an – 9%.

Xitoy sug`urta kompaniyalarining o`ziga xos jihatlari ularning ko`rsatadigan xizmatlarini yuqori sifatda emasligi bilan ajralib turadi. Shu sababli JST ga a`zolikdan so`ng Xitoy o`z sug`urta boziri tubdan isloh qilishni boshlab yubordi. Chunki JST ga a`zo bo`lmasdan oldin chet el sug`urta firmalari uchun faqatgina shaxsiy xavflarni sug`urta qilishga ruxsat berilgan edi. JST ga a`zolikdan so`ng chet el sug`urta firmalari shaxsiy xavflardan tashqari yana tadbirkorlik va

³³ www.stats.gov.cn/insurance/marketshare/2011/

korparativ xavflarni ham sug`urtalash imkoniga ega bo`ladi. Natijada Xitoyning milliy sug`urta kompaniyalari ichki bozorning ancha qismini yo`qotishlari mumkin.

XXR ning 2001-yilda JST ga a`zo bo`lib kirganidan so`ng shu vaqtgacha Xitoy Xalq Banki tomonidan chiqarilgan “Chet el sug`urta kompaniyalari faoliyatini tartibga solish to`grisidagi vaqtinchalik qonun” o`rniga Xitoy Sug`urta faoliyati nazorati qo`mitasi “XXR dagi chet el sug`urta kompaniyalarining faoliyati boshqaruvi qonuni” qabul qilindi.

Qonunning 7-moddasiga muvofiq chet el sug`urta kompaniyalarining filiallari Xitoyda tashkil qilinganda ularning ustav kapitali 200 mln yaundan kam bo`lmasligi lozim, bundan tashqari filiallar yana 200 mln yuanlik operatsion fondga ham ega bo`lishi kerak (ko`rsatilgan mablag` ekvivalent tarzda SDR ko`rinishida bo`lishi mumkin).

Qonunning 8-moddasiga muvofiq Xitoyda faoliyat yuritmoqchi bo`lgan chet el sug`urta kompaniyalari Xitoy Sug`urta faoliyati nazoratining qo`mitasining quyidagi talablarga javob berishi kerak:

- Sug`urta sohasida kamida 30 yil faoliyat yuritgan bo`lishi kerak;
- Xitoy hududida kamida 2 yil davomida o`z vakiliga ega bo`lgan bo`lishi kerak;
- Ariza bergan sug`urta kompaniyasining ariza bergan yil oxiridagi jami aktivlari hajmi kamida 5 mlrd dollarni tashkil etishi lozim;
- Arizachi tashkilot boshqa davlatlardagi bo`limlarini boshqarish va nazorat qilish mexanizmiga ega bo`lishi kerak;
- Mamlakatdagi kompensatsiya va boshqa to`lovlarni to`lash bo`yicha tartiblarga rioya qilinishi;
- Arizachi tashkilot joylashgan davlatning tegishli muassasasidan arizachi arizasiga qarshilik yo`qligi to`grisidagi ma`lumotnoma.

Xitoy JST ga a`zo bo`lganidan so`ng hamkorlikdagi brokerlik kompaniyalari ochilishiga ruxsat beriladigan bo`ldi (chet ellik hamkorning brokerlik kompaniyasidagi ulushi uch yilgacha 50% dan oshmasligi lozim, uch yildan so`ng

bu ulush 51% gacha o`zgartiriladi va 5 yildan so`ng har qanday cheklovlar butunlay olib tashlanadi).

Chet el kapitali ishtirokidagi kompaniyalarga Xitoyning ichki hududlarida ham o`z filiallarini ochish imkoniyati beriladi. Hududiy cheklovlarga ko`ra chet el kompaniyalari Shanxay, Guanchjou, Dalyan, Shenchjen, Foshan shaharlaridagina faoliyat olib borishlari mumkin edi. 2004-yildan boshlab Pekin, Chendu, Chuntsin, Fuchjou, Suchjou, Syamen, Ninbo, Shenyang, Uxan va Tyanjin shaharlari chet el biznesi uchun ochildi. 2005-yilga kelib esa hududiy cheklovlarning barchasi olib tashlandi. Bundan tashqari 2006-yilda xavflarni qayta sug`urtalash ham butunlay olib tashlandi (ChinaRe kompaniyasida xavflarni qayta sug`urtalash stavkasi 2002-yilda 20%, 2003-yilda 15%, 2004-yilda 10%, 2005-yilda 5% ni tashkil qilgan).

2.2. Mamlakat moliya-kredit tizimida amalga oshirilgan islohotlarning milliy xo`jalikka ta`siri.

Xitoy Kommunistik Partiyasi Markaziy Qo`mitasining “Islohotlarni har tomonlama chuqurlashtirishning ba`zi muhim muammolari to`g`risida”gi qarorida³⁴ aytiladiki, moliya – davlatni boshqarish uchun asos va muhim tayanch hisoblanadi, ilmiy asoslangan moliya va soliq solish tizimlari esa mamlakatda resurslarni optimal joylashtirish, ijtimoiy tenglikni qo`llab-quvvatlash va uzoq muddatli tinchlik va barqarorlikni ta`minlash uchun institutsional kafolatdir.

Qonunchilikni takomillashtirish, hukumatning ma`muriy vakolatlarini aniqlash zarur, va bu soliq yukini barqarorlashtirish, moliyani shaffof qilish, samaradorlikni oshirish, joylardagi hukumatlarda markaziy hukumatdagi kabi faol tashabbuslarni namoyon qilish uchun zamonaviy moliyaviy rejimni yaratishga yordam beradi.

Ushbu qaror 2013-yil 9-12-noyabr kunlari Pekinda o`tkazilgan Xitoy Kommunistik partiyasi markaziy qo`mitasining 3-plenumi 18-chaqirig`ida qabul qilindi.

Qarorda xabar berilishicha, Xitoyda har tomonlama, normallashtirilgan, ochiq va aniq byudjet tizimini yaratish rejalashtirilmoqda. Unga muvofiq, oddiy transfert tizimi eski inqilobiy tayanch bazalar, milliy kamchilikni tashkil qiluvchi xalqlar kompakt yashaydigan rayonlar, chegaraoldi va kambag`al hududlardagi transfert to`lovlar tizimi mukammallashtiriladi.


Muntazam ravishda to`g`ri soliqlarning ulushi oshadi, QQSni isloh qilish davom ettiriladi, mo`tadil ravishda soliq tariflari kamaytiriladi, iste`mol sohasiga soliq solish tariflari va shu turdagi soliqlar qayta nazoratga olinadi. Energiya talab, atrof-muhitni iflos qiluvchi va hashamdor tovarlar uchun soliq joriy qilinadi va uning hajmi ortadi. Ko`chmas mulkni soliqqa tortish bo`yicha normativ-huquqiy bazani yaratish tezlashtiriladi.

Qarorga ko`ra, mudofaa, diplomatiya, davlat xavfsizligi, yaxlit milliy bozorni boshqarish markaziy ma`muriyatning vazifalari hisoblanib, aholining

³⁴Pekin, 15-noyabr 2013-yil / www.xinhua.cn/

ijtimoiy ta'minoti, muhim transmintaqaviy loyihalar esa joylardagi hokimiyat vakillari va markaziy hukumatning hamkorlikda amalga oshiriladigan vazifalari sirasiga kiradi. Mintaqaviy ijtimoiy xizmatlar joylardagi hukumat orqali amalga oshiriladi.

2.2.1-rasm




2.2.1-rasmdan Xitoy YaIM hajmining o'sish dinamikasini mamlakatdagi kreditlar hajmi bilan to'g'ri bog'liqligining borligiga guvoh bo'lamiz. Kreditlar va YaIM o'sish hajmi bir-birini taqozo qiladi. Shu sababli nafaqat XXR da balki barcha davlatlardagi moliya-kredit tizimining to'g'ri shakllantirilishi iqtisodiy o'sishni ta'minlab beradi.

Xitoydagi urbanizatsiya va zamonaviylashuv (modernizatsiya) ko'lamini e'tiborga olinsa, ba'zan Xitoy iqtisodiyotida haqiqatda nimalar sodir bo'layotganini anglash qiyin bo'ladi. Shuningdek, ba'zida davlat statistika xizmati lozim darajada qayd qilishi va e'lon qilinayotgan makroiqtisodiy ma'lumotlarning haqiqiy holatni aks ettirishiga ishonish qiyin bo'ladi. Shunday qilib Xitoy iqtisodiyoti tadqiqotchilarining yoki sanoat ishlab chiqarish va qurilish sektorida ro'y berayotgan holat to'g'risidagi norasmiy ma'lumotlarga tayanishlariga ,yoki

energiya iste'moli, qurilish hajmi, neft, mis va alyuminiy baholarining dinamikasi kabi iqtisodiy ko'rsatkichlardan kelib chiqishlariga to'g'ri keladi (Xitoyning yirik xomashyo import qiluvchi davlat ekanligini hisobga olgan holatda).

Pul-kredit indikatorlari Xitoydagi iqtisodiy va moliyaviy holatning yana bir manbai bo'lib xizmat qiladi, biroq faqat pul miqdori va kredit vositalarining tahlili asosida iqtisodiy o'sish va inflyatsiya darajasi to'g'risida tasavvur hosil qilishga kafolat berib bo'lmaydi. Ayni paytda bunday tahlil yirik iqtisodiyotda pul siyosati rivojlanishini modellashtirishda qo'l keladi; pul nazariyasi va moliya tarixi tarafdorlari AQSH ning 1930 yillardagi pul siyosatiga oid savollar bo'yicha yoki pul miqdorining iqtisodiyotga qanday ta'sir qilishi to'g'risida hanuzgacha qizg'in bahslar olib borilayotganini yaxshi bilishadi.

2.2.2-rasm



manba: IMF Statistical Report 01.2013

2.2.2-rasmdan Xitoyning xorijiy valyuta zahirlari bo'yicha yetakchi davlatlar orasida birinchi ekanligini ko'ramiz. Xitoy so'ngi o'n yilda tez sur'atlarda o'sish qayd qilindi. Xitoy pul almashtirish kursining sun'iy pasaytirishga asoslangan o'shish modeliga amal qildi (oldin AQSH dollari kursiga bog'langan edi), bunda iste'mol xarajatlarining zarari hisobiga eksport kuchaytiriladi. Shuningdek, Xitoy iqtisodiyotining keskin o'sishi zaruriy infrastrukturaning qurilishiga olib keldi (ishlab chiqarish sektorida band bo'lgan qishloq aholisining ko'chib kelishi uchun

yangi shaharlar qurildi). Biroq buning oqibatida investitsiya hajmining YaIMga nisbatan 50% gacha oshib ketishini ko'pchilik ekspertlar iqtisodiyot uchun juda yuqori deb hisoblashadi. O'ta yumshoq pul-kredit siyosati bilan birgalikda bu kapital taqsimotidagi sezilarli disbalansni tug'dirdi, me'yoridan oshiq qarzdorlik darajasining vujudga kelishiga olib keldi va ko'chmas mulk baholarining keskin o'sishiga sabab bo'luvchi kreditlashtirishni keltirib chiqardi.

Hozirda XXRda iqtisodiy o'sish susaygan (2013 yilda 7,7% ni tashkil qilgan)³⁵. Uzoq muddatli istiqbolda eksport va investitsiyaga emas, ichki iste'molga asoslangan iqtisodiy o'sish modeliga o'tish ancha past, ammo ancha mustahkam o'sish sur'atlariga olib kelishi lozim, va holanki ishchi kuchini oshirish salohiyati deyarli tugatilgan.

Biroq pul-kredit siyosati va kreditlashtirishning o'sish sur'atlari har doimgidek tartibga soluvchilar va investorlarning bosh og'rig'i bo'lib kelmoqda. Keyingi ikki yil davomida Xitoy hokimiyatlari foizli stavkalarni oshirish va bank zahiralarning majburiy normativlarini kuchaytirish yo'li bilan pul miqdorlari va kreditlashtirishning o'sishini cheklashning faol choralarini qo'lladi.

2009-yildan Xitoyda kreditlashtirishning o'sish sur'atlari doimiy ravishda YaIM o'sishi sur'atlaridan oshib kelmoqda va 2009-2012 yillar oralig'ida bu ko'rsatkich bo'yicha faqat Qatardan keyingi o'rinda turadi. Xitoyda xususiy sektorning bank kreditlari YaIM ga nisbatan 136% ni tashkil etadi; Fitch reyting agentligining ma'lumotlariga ko'ra, ular tomonidan tahlil qilingan o'tish davri iqtisodiyotidagi davlatlardan faqat ikkitasi yuqoriroq ko'rsatkichga ega. Jahon iqtisodiyoti muammolarining chuqurlashuvi Xitoyda ham o'tgan yilgi iqtisodiy o'sishning susayishiga sabab bo'ldi. Ammo davlat rahbariyatining almashinuvi arafasida Xitoy hokimiyatlari kreditlashtirishni cheklash bo'yicha qo'yilgan topshiriqlarni bajarish borasida jonbozlik ko'rsatmaslikka qaror qilishgan ko'rinadi. Xitoy iqtisodiyoti bo'yicha yetakchi mutaxassislardan biri bo'lmish Jorj Magnus fikricha, mamlakatdagi kreditlashtirishning o'sishi bilan bog'liq vaziyat ko'proq Xayman Minski tomonidan yozilgan ssenariyni eslatmoqda. Magnus bu

³⁵ <http://www.stats.gov.cn> 2013

yerda o'zining moliyaviy kapitalizmning ichki beqarorligi to'g'risidagi ishlari bilan tanilgan va kredit siklining qismi bo'lgan spekulativ pufakchalar hosil bo'lish jarayonini yoritib bergan amerikalik iqtisodchini nazarda tutmoqda. Aynan mana shu jarayon 2007-2008 yillarda AQSH dagi substandart ipoteka inqirozi paytida kuzatilgan. Magnus aytadiki, Xitoydagi hozirgi paytdagi kreditlashtirish yopish muddatlari yetgan yomon kreditlarni moliyalashtirishdan chiqarish bilan tavsiflanadi.

Bundan tashqari, kreditlashtirish uchun erkin mablag'lari bor bo'lganlar kreditlarni tartibga solishning kuchaytirilishidan qochishga va o'zlarining pullarini depozit bo'yicha real stavkalari manfiy bo'lgan banklarda saqlamaslikka harakat qilishmoqda. Bu Xitoyda noqonuniy ("soyaviy") bank sektorining o'sishiga olib keladi. Bu segmentning ko'lamini aniqlash qiyin, lekin ba'zi baholar shuni ko'rsatadiki, bu 18 trln yuanni tashkil qiladi. Xitoy hukumati ushbu holatni e'tiborga olgan holda jamg'arma "ijtimoiy moliyalashtirish" statistikasini chop qilib kelmoqda. Ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, hozirda umumiy moliyalashtirish o'smoqda va bugungi kunda 100 trln yuanni tashkil etadi (bu nominal YaIM dan ikki baravar ko'p). 2013 yil martida jamg'armalar "ijtimoiy moliyalashtirish" rekord ko'rsatkichiga erishdi va 2,54 trln yuanni tashkil etdi. An'anaviy bank kreditlashtirishiga umumiy moliyalashtirish hajmining bor-yo'g'i 40% i to'g'ri keladi.

Xitoyda noqonuniy ("soyaviy") sektor 2004-yildan boshlab puldorlarning boshqaruv sektoridagi mablag'larining taklifi sifatida vujudga kelgan. Ular o'sishining bosh katalizatori bo'lib bank depozitlarining past stavkalari xizmat qiladi. Markaziy bank banklarning foyda olishlarini ta'minlash maqsadida jamg'arma depozitlari hisobidan to'lanadigan foiz stavkalarining eng kam miqdorini o'rnatadi. Xitoyda banklar tomonidan puldor mijozlarga taklif qilinadigan mahsulotlarning umumiy hajmi YaIM ning 17% ini tashkil etadi. Biroq bu mahsulotlar moliyaviy beqarorlikning manbaidir, chunki ular kapitalning oqib ketishi oldida ojizdirlar. Bundan tashqari bunday kredit uskunasi YaIM o'sishiga

kam ta'sir qiladi, natijada "kreditlashtirish zichligi" pasayadi. YaIM ning katta qismi qaytadan moliyaviy zararlarni qoplashga sarflanadi.

Yana bir muhim jihatlardan biri shuki, kredit faolligi o'sishining sezilarli qismi hududiy hokimliklar va ularning moliyaviy organlari faoliyati bilan bog'liq. Fitch agentligi yaqinda Xitoyning hajmi YaIM ning 25%ini tashkil qiluvchi davlat qarzi reytingini pasaytirdi, buning tuzilishi manbai sifatida bank kreditlari va bir qator noqonuniy ("soyaviy") moliyaviy resurslar xizmat qiladi.

Xitoyning tartibga soluvchi organlari noqonuniy ("soyaviy") bank sektori faoliyati oqibatlarini yaxshi bilishadi va uning ustidan nazorat o'rnatish choralari ko'rishmoqda. Inqiroz bosimini ushlab turish vositasi sifatida hokimiyat yuanni mustahkamlashni ma'qul ko'rishi mumkin. Yuanning mustahkamlanishi joriy operatsiyalar hisobi profitsitining qisqarishiga va global iqtisodiyotdagi mavjud disbalanslarning yumshashiga yordam berishi mumkin.

Xitoy banklari tomonidan xalqaro fond bozoridagi IPO³⁶ tadbirini o'tkazishi natijasida (2005-2006 yillarda Xitoy Savdo Sanoat Banki, Xitoy Banki, Xitoy Komunikatsiya Banklari va 2010-yil Xitoy Qurilish Banki IPO tadbirini o'tkazganlar) ularning ustav kapitali hajmi 30 dan 80% gacha ko'paydi, mijozlar haqidagi axborotni taqdim etish bo'yicha tartib takomillashtirildi, egalik sohasida katta o'zgarishlar ro'y berdi. Shunga qaramay hozirgi kunda ham Xitoyning yirik banklaridagi katta davlat ulushi saqlanib qolgan va davlat bu banklar boshqaruvida hal qiluvchi ahamiyatga ega, hukumat esa o'z navbatida pul-kredit siyosatini belgilab beradi.

Isloh qilinayotgan banklar 2004-2006-yillar davomida o'tkazilgan restrukturizatsiya jarayonlari natijasida o'z aktivlari sifatini oshirishga erishishdi – yomon qarzlarning berilgan kreditlarning umumiy hajmidagi ulushi "katta to'rtlik" banklarida 2 barobarga, aksiyadorlik tijorat banklarida 3 barobarga qisqardi. 2010-yil oxirida bu ko'rsatkich bank tizimi bo'yicha 1,13%ni tashkil etib, dunyo standartlari darajasiga yetdi. Xitoy Qurilish bankini restrukturizatsiya qilish jarayonida yirik hajmli yomon qarzlarni ro'yxatdan chiqarildi.

³⁶ Aksiyalarning birlamchi fond bozoriga chiqarilishi (ingl. Initial Public Offering)

Xitoy bank tizimida nazorat va tartibga solish tizimini yaxshilash maqsadida quyidagi tadbirlar amalga oshirildi:

- kreditlarni 5 ta kategoriya bo'yicha xalqaro tasniflash o'rnatildi (Bazel qo'mitasi standartlariga mos ravishda);
- Bank nazorati va tartibga solish bo'yicha Komissiya (BNTK) tashkil etildi;
- Markaziy bank (XXB) va BNTK o'rtasida Xitoyning nazorat tizimidagi vakolatlari taqsimlandi hamda ular faoliyati o'zaro muvofiqlashtirildi.

Xitoy Xalq Banki (XXB) pul siyosatining maqsadi “mamlakatning iqtisodiy o'sishiga ko'maklashish maqsadida xarid qobiliyatini barqaror saqlash” deb aniq belgilangan. Xitoy Xalq Respublikasida qonuniy tartibda inflyatsiyaga qarshi kurash va iqtisodiy o'sishning ustunliklari mustahkamlab qo'yilgan. Xitoy Xalq Bankining boshqa mamlakatlar markaziy banklaridan muhim farqi uning Davlat Kengashi qaramog'ida ekanligidan iboratdir.

“Xitoy Xalq Banki to'g'risidagi Qonun”ning 5-moddasiga ko'ra, Xitoy Xalq banki yillik pul emissiyasi, hisob stavkalari, valyuta kursi va boshqa muhim masalalar to'g'risida qarorni Davlat Kengashi tasdig'iga taqdim etadi va uning shu masalalar bo'yicha tasdig'ini amalga oshiradi. Pul siyosatini qayta ishlashda kata e'tabor klassik ko'rsatkichlar to'plami (ishsizlik darajasi, inflyatsiya va iqtisodiy o'sish sur'ati) ga qaratildi. Ma'lumki, ishsizlik darajasi yuqori bo'lsa, ish o'rinlari yetarli bo'lmasa, jamiyat mehnat resurslaridan unumli foydalanmaydi. Inflyatsiyaning o'ta yuqori tezligi pul resurslarini qadrsizlantiradi, lekin nazorat ostidagi yiliga 1-3 % oralig'idagi inflyatsiya foydali bo'lishi mumkin, chunki bu holatda investitsiyalar va iqtisodiy o'sish rag'batlantiriladi. Makroiqtisodiy o'zgaruvchan ko'rsatkichlar (inflyatsiya, ishsizlik va iqtisodiy o'sish) dan tashqari, kredit va depozitlar bo'yicha foiz stavkalari, davlat byudjetining taqchilligi va to'lov balansining muvozanati ham mamlakat iqtisodi faoliyatining muhim ko'rsatkichlari hisoblanadi. XX asrning 90-yillari o'rtalaridan boshlangan moliya tizimidagi yanada chuqurroq islohotlar davlat nazorati ostida bozor iqtisodiyotidagi islohotlar bilan bir vaqtda olib borilmoqda.

1998-yilda pul-kredit tizimini isloh qilishga navbatdagi muhim qadam qo'yildi – XXB tijorat banklarining kredit siyosati ustidan qat'iy nazoratidan voz kechib, ularga mustaqil kredit siyosatini shakllantirish huquqini topshirdi. Shu vaqtning o'zida Markaziy bankning tuzilishi qayta tashkil etildi. 1994-yilgacha Xitoy Xalq Banki o'z muassasalarini mamlakat ma'muriy bo'linishiga mos ravishda joylashtirdi. Iqtisodiy islohotlarning chuqurlashuvi bu yo'nalishda o'zgarishlarni talab qildi. Provinsiyalar boshqaruvining Markaziy bank bo'limlariga ta'sirini bartaraf qilish uchun 1998-yilda XXBning provinsiya bo'limlari faoliyati tugatildi va 9 ta provinsiylararo bo'limlar yaratildi. Undan tashqari, 1996-yildan XXRda foiz stavkasi pasaydi. 2002-yilning fevral oyida aholining muddatli (yillik) omonatlari bo'yicha foiz stavkasi 1,98% gacha tushdi, kreditlar 5,31% ostida taqdim etiladigan bo'ldi.

90-yillardan boshlab mamlakatga sezilarli hajmda xorijiy kapital kirib kela boshladi, bu esa mamlakatda amal qilayotgan pul-kredit siyosati va moliya bozorlari talablariga rioya qilishlik talablarini bajarilishiga va moliya subyektlariga yanada kengroq mustaqillik berilishiga olib keldi. Oqibatda ortiqcha pul massasi bir necha marta (1985, 1988 va 1994-yillar) haddan ortiq oshib ketdi, inflyatsion portlash, ijtimoiy vaziyatning keskinlashishi, islohotlarning barbod bo'lishi kabi xavflarni tug'dirdi, ularning oldini olish uchun ma'muriy va tartibot choralari ko'rildi. Ularning samaradorligi, asosan, aholining hokimiyatga va uning moliyaviy institutlariga yuqori darajadagi ishonchiga tayandi. 1990-yildan 2003-yilgacha aholi depozitlarining umumiy miqdori deyarli 12 martaga ko'paydi va YaIMning 90%dan ortig'ini tashkil etdi.

XXR hukumati va Xitoy Xalq bankining pul massasini oshirishga yo'naltirilgan faoliyati aholi pul daromadlarining oshishiga muvofiqlashtirildi. 24 yillik islohotlar (1979-2002) davomida nominal ish haqi umummilliy fondi 19,8 martaga o'sdi. Aholi omonatlari inflyatsiyaga mos holda indekslashtirildi, narx oshishini oldini olishga yo'naltirilgan qat'iy choralar vaqti-vaqti bilan muvofiqlashtirildi. Pul daromadlari va emissiyasini tartibga solish, vaqtinchalik bo'sh pul mablag'larini jamg'arma omonatlari va qimmatli qog'ozlar orqali

muomaladan chiqarish kabi tadbirlar narx o`shishini ushlab turish va inflyatsiyani oldini olishga imkon yaratdi.

2002-yilda Xitoy o`z tarixida birinchi marta chet el investitsiyalarini qabul qiluvchi eng yirik mamlakatga aylandi va o`zlashtirilgan chet el investitsiyalari miqdori 52,7 mlrd. dollarni tashkil etdi. Stavkalarning pasayishi, shuningdek, rezerv fondiga ajratmalar normalari Xitoy xo`jaligiga pul taqdimotini oshirdi. O`sha paytda stavkaning tushishi natijasida iqtisodiyotda inflyatsiya hodisasi kuzatilmadi. Bunday natija ostida, bir tomondan ishlab chiqarishning oshishiga, boshqa tomondan, XXBning ochiq bozorda 40 ta davlat tijorat banklari bilan operatsiyalar amalga oshirishiga erishildi. Ular muhim xalq xo`jaligi ma`nosiga ega bo`ldi, deb hisoblanadi: 1999-yildayoq XXB bozorda likvidlilik holatini tartibga solgan holda davlat obligatsiyalari bilan repo (to`g`ri va qaytuvchi) operatsiyalarini o`tkazdi, xususiy to`lov majburiyatlarini chiqarish va sotib olish va shu kabi tadbirlarni amalga oshirdi. Pul massasini tartibga solishning boshqa bir yo`nalishi chet el valyutasini sotib olish va sotish operatsiyalari bo`ldi.

Turli xil xavf va ko`nikish bo`lib qolgan inflyatsiya va aholi jamg`armalarini oshirishni tartibga solish yumshatildi va tadbirkorlarning aksiyalari fond bozoridagi boshqa hali rivojlanib ulgurmagan sohalarga qo`yilgan talablar ham olib tashlandi. 2001-yil oxirida XXR moliya tizimiga qo`yilmalar hajmi 11 trln.yuandan oshdi.

Xitoy iqtisodiyoti monetizatsiyasining yuqori darajasi va uning iqtisodiy o`shishga samarali ta`siri Xitoy milliy bank tizimi likvidlik darajasining yuqori bo`lishini ta`minlaydi. Xitoy iqtisodiyoti monetizatsiyasining umumiy darajasi 2007-yilning boshida 1,6ni tashkil etgan.³⁷

Valyutani tartibga solish. Yuan almashinuv kursi XXR Xalq banki tomonidan o`rnatiladi va davlat bosh valyuta nazorati boshqaruvi tomonidan e`lon qilinadi. XXRda valyuta tizimi islohoti 1994-yilda o`tkazilgan va quyidagi ishlar amalga oshirilgan:

- asosiy valyutalarning yuanga nisbatan yagona kurslari joriy etildi;

³⁷ <http://www.stats.gov.cn> 2008

- banklararo valyuta bozori tashkil etilgani asosida valyuta hisoblari, savdosi va o'tkazmalari tizimi yaratildi.

1996-yilda tashkilotlarning xorijiy bozorlarga valyuta oldi-sotdi operatsiyalari bank konvertatsiya tizimiga kiritildi. Shu yil oxiridan boshlab XXR va Xalqaro valyuta fondi (XVF) bilan bitimning 8-moddasi rasmiy kuchga kirdi va yuanning xorij valyutalariga almashinuvi joriy etildi. 2001-yilda XXR valyuta rezervlari 212 mlrd dollardan oshib ketdi. 1980-90-yillarda Xitoy bozorida chet moliyaviy tuzilmalarining faoliyati kengaytirildi. Hozirgi kunda XXRning 23ta shaharlarida va Xaynan provinsiyasida xorijiy kapitalga ega 190 ta moliyaviy tuzilmalar faoliyat ko'rsatadi. 1999-yilda chet el kapitaliga ega banklar markazga bo'ysunuvchi shaharlarda filiallar ochish huquqiga ega bo'lishdi. 2001-yilda 30 dan ortiq xorijiy kapitalga ega banklar o'z operatsiyalarini yuanda amalga oshirishgan, yaqin o'tgan yillardan beri barcha xorijiy kapitalga ega banklar bunday operatsiyalarni provinsiyalarda o'tkazish huquqini olmoqdalar. Xitoy Xalqaro Tiklanish va Taraqqiyot Banki va XVF a'zosi hisoblanadi. 1985-yilda XXR Afrika Taraqqiyot bankiga a'zo bo'ldi, 1986-yilda esa Osiyo Taraqqiyot banki a'zosiga aylandi.

Yuan – Osiyoning eng barqaror valyutalaridan biri. 1994-yilboshida ikki tizimli valyuta almashtirish bekor qilindi, yagona almashinuv kursi 1 AQSH dollariga 8,3-8,4 yuan darajasida o'rnatildi,³⁸ 1998-yildan boshlab esa 1 AQSH dollari 8,28 yuanga teng deb belgilandi. Hatto 1997-1998-yillarda Sharqiy Osiyoda yuz bergan va mintaqaning ko'plab mamlakatlarida iqtisodiy tanazzul va o'sish sur'atlarining qisqarishiga sabab bo'lgan moliyaviy inqiroz sharoitida ham Xitoy hukumatining 1979-yilda boshlagan valyuta tizimida islohotlar o'tkazishdagi izchil amalga oshirgan siyosati davlatning moliyaviy-iqtisodiy xavfsizligini ta'minladi.

Milliy iqtisodiyotning barqaror yuqori o'sishini ta'minlash maqsadida Xitoy hukumati 2005-yilning iyul oyigacha AQSH dollariga nisbatan qat'iy o'rnatilgan yuan almashinuv kursini qo'llab-quvvatladi, o'sha paytda dunyoning asosiy

³⁸ www.pbc.gov.cn

valyutalari – yena va yevroga nisbatan yuan devalvatsiyasi sodir bo`ldi.<sup>39</sup> Xitoy o`z iqtisodiy siyosatining maqsadlariga muvofiq mamlakatdagi real moliyaviy-iqtisodiy vaziyat va xalqaro to`lovlarni hisobga olgan holda yuan kursini tartibga solish mexanizmini mukammallashtirishda davom etmoqda.

Oxirgi paytlarda Xitoy Yevropa Ittifoqi, Yaponiya ayniqsa AQSH tomonidan yuan kursini liberalizatsiyas qilish to`g`risidagi talablari bilan bog`liq bosimga duch kelmoqda. Talabgorlar fikricha yuan kursi sun`iy pasaytirilgani bois Xitoy mahsulotlarining jahon bozorida raqobatbardoshlik darajasi yuqori.

Tadqiqotchilar fikricha, kelajak 10-15 yil ichida yuan to`rtinchi xalqaro zahira valyutasiga aylanishi mumkin. Milliy valyuta zaif bo`lgan Janubiy Osiyo davlatlarida Xitoy yuani hisob uchun muqobil valyuta bo`lib xizmat qiladi. Xalqaro valyuta fondining baholariga ko`ra, Osiyoda (Yaponiyadan tashqari) savdoning 40%i mintaqada ichida amalga oshiriladi. Bu o`z hisob valyutasini izlashga va aynan uni ma`qul ko`rishga majbur qiladi (agar u valyuta barqarorligi bo`yicha dollar bilan qiyoslana olinsa. Xitoy ekspertlarining fikricha, valyuta savatchasini yaratish yuanni jahon iqtisodiyoti konyukturasiga hushyor bo`lishiga olib keladi, lekin bu bilan mamlakatning moliya tizimiga xavf-xatar tug`ilmaydi.

2.3. Xitoyning islohotlar borasidagi tajribasini O`zbekistonda qo`llash imkoniyatlari

O`zbekiston va Xitoyning iqtisodiy taraqqiyot yo`llari bir biriga o`xshash. Bu ikki mamlakat ham o`z tashqi iqtisodiy faoliyatini rejalashtirilgan va

³⁹IMFStatistical Report 2006

markazlashtirilgan iqtisod sharoitidan boshlagan. Bu kabi o`xshashliklar faqatgina tashqi iqtisodiy aloqalar yo`nalishida emas, balki moliyaviy tuzilmalarda ham ko`riladi. Xitoydagi eng yirik to`rtta bank tuzilishi va asosiy faoliyat yo`nalishlari bo`yicha O`zbekistonning ham eng yirik to`rtta bankiga juda o`xshash. Xitoyning ExIm banki O`zbekistonning Tashqi iqtisodiy faoliyat milliy bankiga, Xitoyning Savdo Sanoat Qurilish Banki O`zbekistonning O`zsanoatqurilish bankiga, Xitoy Xalq banki esa O`zbekiston Xalq bankiga funksional va mulkchilik shakli bo`yicha juda o`xshash hisoblanadi.

O`zbekiston hozirgi kunda o`z hududidagi tadbirkorlarni tashqi iqtisodiy faoliyat uchun rag`batlantirishda Xitoy tomonidan qo`llanilgan moliyaviy metodlarni joriy qilmoqda (ayniqsa eksport hajmi ham sifat, ham miqdoriy jihatdan o`stirishga qaratilgan choralarda bu yaqqol namoyon bo`ladi). Oxirgi yillarda O`zbekiston Respublikasi Hukumati amalga oshirilayotgan islohotlar dasturi doirasida o`z oldiga tarkibiy va institutsional o`zgarishlarni amalga oshirish bo`yicha keng ko`lamli vazifalarni qo`ymoqda. Bu bir tomondan sezilarli miqdorda moliyaviy resurslarni talab qilsa, ikkinchi tomondan ushbu resurslarni taqsimlash va ulardan foydalanishning samarali tizimining joriy etilishini nazarda tutadi. Shu nuqtai nazardan byudjet tizimini samarali, ochiq va oshkora boshqarish mazkur vazifalarni amalga oshirishning eng muhim vositasiga aylanmoqda. 2010-yil martda yakunlangan loyiha doirasida byudjet qonunchiligini hamda davlat byudjetini rejalashtirish va ijro etish metodologiyasini mukammallashtirish, buxgalteriya hisobi va auditorlik faoliyati hamda soliq ma`murchiligini takomillashtirish, sug`urta bozorini isloh qilish va rivojlantirish, shuningdek Moliya vazirligi xodimlarining salohiyatini oshirishga qaratilgan tashabbuslar samarali amalga oshirildi. “O`zbekistonda byudjet tizimi islohoti” loyihasining maqsadi byudjet tizimi boshqaruvining samaradorligi, hisobdorligi, ochiqligi va oshkoraligini kuchaytirishga qaratilgan islohotlarni qo`llab-quvvatlash va bu sohada mavjud salohiyatni mustahkamlashdan iborat.

Ushbu maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilangan:

- byudjet siyosatini takomillashtirishning turli yoʻnalishlari boʻyicha tadqiqotlar tashkil etish va amalga oshirish,
- natijaga yoʻnaltirilgan byudjetlashtirish va byudjetni oʻrta muddatga rejalashtirishni tadbiq etish sohasidagi islohotlarning amalda qoʻllanilishini taʼminlovchi qonun hujjatlarini ishlab chiqish, ularning muhokamasi va qabul qilinishida koʻmaklashish,
- davlat xaridlarining samarali, ochiq va oshkora tizimini qoʻllab-quvvatlashda huquqiy, meʼyoriy bazasini yaxshilashda yordam koʻrsatish,
- davlat organlari xodimlarining salohiyatini kuchaytirish va islohotlarni yuqori malakali kadrlar bilan qoʻllab-quvvatlashni taʼminlash,
- shuningdek byudjetlashtirishning yangi metodlarini keng miqyosda amalga joriy etishga koʻmaklashish.

Yuqorida sanab oʻtilgan maqsad va vazifalarga erishida Oʻzbekiston uchun jahon tajribasidan, Xususan Xitoy Xalq Respublikasi tajribasidan foydalanish moliya va kredit tizimini keng qamrovli faoliyat olib borishi va mamlakatda faoliyat yuritayotgan xoʻjalik subyektlarini tashqi iqtisodiy faoliyat olib borishga ragʻbatlantirish kabi muhim vazifalarni amalga oshirishda asosiy vositalardan biri boʻlib xizmat qila oladi.

Bu omillardan tashqari Oʻzbekiston va Xitoy oʻrtasidagi iqtisodiy-ijtimoiy hamkorlik aloqalari yanada kengayib borayotgan bir sharoitda Oʻzbekiston uchun Xitoyning iqtisodiy taraqqiyot yoʻnalishlarini oʻrganish va tadqiq qilish yanada muhimroq ahamiyat kasb etadi.

Xitoy va Oʻzbekiston oʻrtasidagi oʻzaro savdo aylanmasi hajmining barqaror oʻsib borayotgani ham diqqatga sazovordir. Masalan, soʻnggi 4 yildagi mamlakatlarimiz oʻrtasidagi tovar ayirboshlash hajmi qariyb 6 barobarga oshdi va 2013-yilda 5.2 milliard dollarga yetdi.⁴⁰ Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2012-yil iyun oyida Xitoyga tashrifi chogʻida 30 dan ortiq investitsiya loyihalarini amalga oshirishga qaratilgan, umumiy qiymati 5.3 mlrd dollardan ziyodroq miqdordagi shartnomalar imzolangan. XXR raisining 2013-yil sentabr oyidagi

⁴⁰ Uza.uz

O'zbekistonga davlat tashrifi doirasida umumiy qiymati 15 mlrd dollarga teng loyihalarni amalga oshirishga qaratilgan 31 ta hujjat imzolandi. Ushbu hujjatlarda 7.7 mlrd dollarlik moliyaviy resurslar, shu jumladan, Xitoy kompaniyalarining 1.3 mlrd dollarlik to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalari, ushbu mamlakat banklarining 6.1 mlrd dollarga teng bo'lgan kredit mablag'lari va 0.3 mlrd dollarlik davlat grantlari jalb etish ko'zda tutilgan. O'zbekistonda xorij kapitali ishtirokidagi 466 ta korxona, jumladan, to'la Xitoy sarmoyasi bilan tashkil etilgan 77 korxona faoliyat yuritmoqda. Mamlakatimizda Xitoyning 71 ta kompaniyasi o'z vakolatxonasini ochgan.

O'zbekiston o'z moliya tizimini isloh qilishdagi o'z oldiga qo'ygan maqsadlar:

- davlat moliya tizimi isloh etilishini quvvatlash uchun zarur qonun hujjatlari bazasini ishlab chiqish;
- natijaga yo'naltirilgan byudjetlashtirishni hamda vazirliklar/byudjet oluvchilar darajasida strategik rejalashtirishni joriy etish borasidagi islohotlarni ilgari surish;
- davlat xaridlari tizimini takomillashtirish va tegishli qonun hujjatlari bazasini ishlab chiqishda ko'maklashish;
- byudjetlararo munosabatalarni takomillashtirish va mahalliy darajada rag'batlantiruvchi omillarni vujudga keltirish orqali fiskal mahalliy lashuvni rivojlantirish;
- genderga oid byudjetlashtirish to'g'risidagi konsepsiyani keng yoyish;
- O'quv markazini institutsional mustahkamlash va islohotlar o'tkazish uchun kadrlar salohiyatini oshirish;

Yuqorida qayd etilgan maqsadlarga erishish uchun O'zbekiston o'z mustaqilligini qo'lga kiritganidan buyon ancha chora tadbirlarni amalga oshirib kelmoqda. Bu chora va tadbirlarda jahon tajribasi, xususan Xitoy moliya-kredit tizimining isloh qilinishida to'plangan tajribalar ham keng kamrovli ravishda qo'llangan.

Xitoy tomonidan amalga oshirilgan moliya-kredit sohasidagi islohotlardan O'zbekiston sharoitlarida milliy iqtisodiy xususiyatlar inobatga olinib foydalanilganidan quyidagi natijalarga erishish mumkin:

- Byudjet kodeksi loyihasidagi o'zgarishlarning andozasini;
- “Davlat xaridi to'g'risida” gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni loyihasini;
- Xarajatlar majburiyatlari reyestrini;
- Daromadlar va xarajatlarni byudjetlararo tekislash metodologiyasi;
- Vazirliklar,byudjet oluvchilar darajasida o'rtacha muddatli strategiyalarni tayyorlash bo'yicha metodik tavsiyalar loyihasi;
- Tumanlarning soliq salohiyatini baholash va prognozlashtirish metodologiyasi, shuningdek, byudjet xarajatlarning har bir tumanga mos indekslarini tuzish.

Bu borada Xitoy Xalq Respublikasining tajribaviy bazasi anchagina katta. Bundan tashqari. XXR hukumati o'zidagi moliya-kredit borasidagi islohotlarni asosan, o'z kuchiga tayangan holda amalga oshirgani ham O'zbekiston va Xitoy o'rtasidagi iqtisodiy taraqqiyotning o'xshash jihatlaridan biri hisoblanadi.

1990-yillar o'rtalarida Sobiq Sovet Ittifoqi hududidagi ayrim davlatlarni o'z iqtisodiy potensial va tarixiy jarayonlar davomida shakllanib ulgurgan moliyaviy tizimining imkoniyatlarini hisobga olmasdan o'tkazilgan islohotlari 1997-1998 yillardagi moliyaviy inqirozlarga sabab bo'ldi. O'zbekiston ham Xitoy singari XVf, BJTTB kabi yirik global moliyaviy muassasalar tomonidan ilgari surilgan takliflardan voz kechib o'zi uchun alohida bo'lgan taraqqiyot yo'nalishini belgilab oldi.

XULOSA

Prezidentimiz Islom Karimov tomonidan ishlab chiqilgan taraqqiyotning “o'zbek modeli” amalda o'zining yuksak samaralarini bermoqda. Bu model yaratilishi va ijrosida moliya tizimi alohida o'ringa. O'zbekistonda amalga

oshirilgan moliya-kredit tizimidagi islohotlar, Xitoyda evolutsion tarzda amalga oshirilgan islohotlar tajribasidan foydalanilgan holda ishlab chiqilgan. Xitoy hukumati tomonidan taraqqiyot, xususan moliya-kredit tizimida amalga oshirilgan chora-tadbirlarni inqilobiy yoki qisqa muddatga, tor doiradagi maqsadlar qamrovisiz amalga oshirilgani, Xitoy kabi boshlang'ich pozitsiyalarda turgan davlatlarda amalga oshirilgan islohotlardan natijaviylik jihatidan ham farqlanadi. O'zbekistondagi islohotlar yo'nalishi ham Xitoy tajribasiga asoslangan holda belgilab olingan. Buni mamlakatimiz iqtisodiyotining barqaror rivojlanib, xalqimiz farovonligi izchil yuksalib borayotganligi misolida yaqqol ko'rish mumkin. Ayni paytda iqtisodiyotning qon tomirlari deb ta'rif berilgan mamlakatimiz bank tizimi dunyo moliya-bank tizimi tamoyillariga hamohang ravishda rivojlanmoqda.

Davlatimiz rahbarining 2010-yil 26 noyabrda qabul qilingan "2011-2015 yillarda Respublika moliya-bank tizimini yanada isloh qilish va barqarorligini oshirish hamda yuqori xalqaro reyting ko'rsatkichlariga erishishning ustuvor yo'nalishlari to'g'risida"gi qarori bu borada muhim dasturilamal bo'lib xizmat qilmoqda. Mazkur hujjatga binoan mamlakatimiz tijorat banklari faoliyatini yetakchi xalqaro reyting agentliklari tomonidan qo'llaniladigan xalqaro me'yor, mezon va standartlar asosida tashkil etish va ularning yuqori baholariga erishish borasida izchil chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Mamlakatimiz bank tizimida olib borilayotgan bunday tizimli tadbirlar, jumladan, tijorat banklari faoliyatini takomillashtirish, ularning moliyaviy barqarorligini mustahkamlash, kapitallashuv darajasi va likvidligini oshirish borasida amalga oshirilayotgan islohotlar xalqaro reyting agentliklari tomonidan yuksak baholanmoqda. Sohada amalga oshirilgan chora-tadbirlar natijasida bank tizimida erishilgan ko'rsatkichlar nafaqat xalqaro umumqabul qilingan me'yorlarga javob beradi, balki ayrim yo'nalishlar bo'yicha undan ham yuksak baholarga sazovor bo'lmoqda.

Xususan, bugungi kunda bank tizimi kapitalining yetarlilik darajasi 24,2 foizni tashkil qilib, xalqaro bank nazorati bo'yicha Bazel qo'mitasi tomonidan qabul qilingan talabga (8 foizga) nisbatan 3 barobar yuqori. Bank barqarorligini

baholash omillaridan biri bo'lgan bank tizimining joriy likvidlik darajasi bir necha yildan buyon 65 foizdan yuqori bo'lib, belgilangan minimal darajadan (30 foizdan) 2 barobar ko'pdir.

Prezidentimiz Islom Karimov tomonidan banklarning moliyaviy barqarorligini mustahkamlash, ularning to'lov qobiliyatini doimo oshirib borish hamda banklarni mamlakat iqtisodiyotining lokomotiviga aylantirish va bunda tashqi qarzlarini oqilona jalb qilish bank tizimini rivojlantirish borasida olib borilayotgan islohotlarining asosiy yo'nalishi etib belgilangan.

Davlatimiz rahbari ta'kidlaganidek, O'zbekiston o'zining mustaqil taraqqiyoti davrida qisqa muddatli spekulativ kreditlardan voz kechib, chet el investitsiyalarini uzoq muddatli va imtiyozli foiz stavkalari asosida maqsadli jalb etish tamoyiliga doimo amal qilib kelmoqda. Bu kabi xususiyat Xitoy moliya-kredit tizimining islohotlarida ham o'z aksini topgan. Xitoy ham xalqaro moliyaviy munosabatlarga kirishar ekan birinchi galda bu munosabatlar oqibatida o'z ishlab chiqarish kuchlarini yanada rivojlantirish va ularni modernizatsiya qilishni o'z oldiga asosiy maqsad qilib qo'yib olgan edi. Qarzni o'z vaqtida qaytara olishga qat'iy ishonch va kafolat bo'lmagan paytlarda muayyan loyihalarni kreditlash bo'yicha ayrim takliflardan voz kechilgan holatlar ham bo'lgan.

Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi salbiy oqibatlarining mamlakatimiz iqtisodiyotiga ta'sirini bartaraf etish maqsadida qabul qilingan 2009-2012 yillarga mo'ljallangan Inqirozga qarshi choralar dasturining ijrosi mamlakatimiz iqtisodiyoti real sektori korxonalarining barqaror ishlashida hamda bank tizimining moliyaviy salohiyatini yanada yuksaltirishda muhim omil bo'ldi. Ushbu Dastur asosida amalga oshirilgan izchil chora-tadbirlar O'zbekiston iqtisodiyotini jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozining salbiy ta'sirlari va oqibatlaridan mustahkam himoya qilish imkonini berdi. Bu jahon miqyosida katta obro'ga ega xalqaro moliya tashkilotlari, xususan, Xalqaro valyuta jamg'armasi, xalqaro reyting agentliklari tomonidan ham keng e'tirof etilmoqda. Xitoyda hozirgi kunda ba inqiroz boshlangan paytda amalga oshirilgan chora-tadbirlar O'zbekistondagi bilan o'xshashlik xususiyatlariga ega. Xitoyda ishlab chiqarish xususan eksportga

yo`naltirilgan yuqori texnologik ishlab chiqarishni aynan inqiroz vaqtidagi yanada rag`batlantirilishi fikrimizga dalil bo`la oladi.

Ma'lumki, banklar yuridik va jismoniy shaxslarning bankka ishonib topshirgan mablag`laridan tavakkalchilik asosida foydalanadi. Banklar tomonidan ushbu mablag`larning ishonchli saqlanishini va o`z egalariga foizli daromadlar bilan birga to`liq qaytarilishini, shuningdek, to`lovlarni amalga oshirish orqali mijozlar o`rtasidagi hisob-kitoblarni o`z vaqtida ijro etilishini ta'minlash bank tizimiga bo`lgan ishonchni yanada mustahkamlashda muhim omil sanaladi.

Mamlakatimiz moliya-bank tizimining iqtisodiyotdagi moliyaviy vositachilik rolini oshirish maqsadida xo`jalik yurituvchi sub`ektlar, aholi va xorijiy investorlarning ushbu tizimga bo`lgan ishonchini mustahkamlashga qaratilgan nazorat mexanizmi shakllantirilgan. Ushbu mexanizmni yanada rivojlantirishda Xitoy moliya-kredit tizimidagi amalga oshirilgan islohotlardan foydalanish maqsadga muvofiq bo`ladi. Xususan Xitoy banklaridagi majburiy zahira normasi, kreditlar taqdim etilayotganidagi shartlar va h,k.

Xitoyda avvalo, har bir tijorat bankining moliyaviy mustahkamligi, o`z majburiyatlarini muddatida va to`liq bajarishi Markaziy bank tomonidan qat`iy nazoratga olingan. Bu kabi o`xshashlik O`zbekiston bank tizimida ham kuzatiladi. Shu bilan birga O`zbekistonda, aholining banklardagi omonatlari to`liq qaytarilishini ta'minlash maqsadida Fuqarolarning banklardagi omonatlarini kafolatlash fondi tuzilgan. Bu borada O`zbekiston Respublikasining «Fuqarolarning banklardagi omonatlarini himoyalash kafolatlari to`g`risida»gi qonuni qabul qilinganligini alohida qayd etish zarur.

Hozirgi vaqtda Xitoy moliya-kredit tizimining xalqaro moliya bozoriga integratsiyalashuv jarayonlari ham O`zbekiston uchun yaxshigina tajriba bazasi bo`lib xizmat qila oladi. Xususan Xitoy integratsiyaga kirishishdan oldin o`z moliya muassasalarini xalqaro raqobatga tayyorlab oldi, O`zbekiston ham bu borada shu yo`ldan bormoqda. O`zbekiston uchun birinchi galda o`zining moliyaviy tashkilotlari nufuzini mustahkamlab olish eng asosiy vazifalardan biridir.

Mamlakatimizda olib borilayotgan iqtisodiy-moliyaviy islohotlarning amaliy natijalari xalqaro moliya institutlari, xususan, Xalqaro valyuta jamg'armasi missiyalari tomonidan ham e'tirof etilmoqda.

Yuqorida keltirilgan fikr-mulohazalar va baholardan xulosa qilib aytish mumkinki, O'zbekiston moliya-bank sohasida amalga oshirilayotgan ishlarning Xitoy va jahon tajribasiga yondoshib izchil davom ettirishi mamlakatimiz moliya-bank tizimining xalqaro mavqei istiqbolda bundan ham yuksalishiga hamda xalqaro moliya institutlarining yanada yuqori baholariga ega bo'lishiga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

I. O'zbekiston Respublikasi prezidentining farmoyishlari va qarorlari

1.1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010-yil 26 noyabrdagi "2011-2015 yillarda Respublika moliya-bank tizimini yanada isloh qilish va barqarorligini

oshirish hamda yuqori xalqaro reyting ko'rsatkichlariga erishishning ustuvor yo'nalishlari to'g'risida"gi qarori

1.2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008 yil 29 dekabrda PQ-1024-sonli qarori.

1.3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010 yil 29 dekabrda "O'zbekiston Respublikasining 2011 yilga mo'ljallangan investitsion dasturi to'g'risida"gi 1455-sonli Qarori.

II. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimovning asarlari va ma'ruzalari

2.1. Karimov I.A. Bizning bosh maqsadimiz - jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh etishdir./ Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisidagi ma'ruzasi.// Xalq so'zi 2005 yil, 29 yanvar.

2.2. Karimov I.A. 2005 yilda mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2006 yilda iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirishning eng muhim ustivor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasi majlisidagi ma'ruzasi. // Xalq so'zi 2006 yil, 13 fevral.

2.3. Karimov I.A. 2007 yilda mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2008 yilda iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirishning eng muhim ustivor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasi majlisidagi ma'ruzasi. // Xalq so'zi 2008 yil, 9 fevral.

2.4. Karimov I.A. 2006 yilda mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2007 yilda iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirishning eng muhim ustivor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasi majlisidagi ma'ruzasi. // Xalq so'zi 2007 yil, 13 fevral.

2.5. Karimov I. A. "Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari". – T.: O'zbekiston, 2009. -56 B.

2.6. Karimov I.A. 2012 yil vatanimiz taraqqiyotini yangi bosqichga ko'tariladigan yil bo'ladi O'zbekiston Respublikasi I.A.Karimovning 2011 yilning asosiy yakunlari va 2012 yilda O'zbekistonning ijtimoiy iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Maxkamasining majlisidagi ma'ruzasi// Xalq so'zi, 2012 yil 20 yanvar, № 14 (5434).

2.7. Karimov I.A. Bizning yo'limiz – demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va modernizasiya jarayonlarini izchil davom ettirish yo'lidir. Prezident Islom Karimovning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 19 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruzasi. // Xalq so'zi, 2011 yil 8 dekabr.

2.8.Karimov I.A.«Yuksak bilimli va intellektual rivojlangan avlodni tarbiyalash – mamlakatni barqaror taraqqiy ettirish va modernizasiya qilishning eng muhim sharti» mavzusidagi xalqaro konferensiyaning ochilish marosimidagi nutqi // Xalq so'zi, 2012 yil 18 fevral

2.9. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning Mamlakatni 2013 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2014 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi, 18.01.2014 y.

III. Kitoblar, monografiyalar, ilmiy maqolalar

3.1.Abdullayev Y. Iqtisodiy bilimlar seriyasi: pul, soliqlar, moliya, kredit va boshqalar.- T., 1997-2000yy.

3.2. Abdullayeva Sh. Pul, kredit va banklar. – T., 2000.-310b.

3.3. Финансы и кредит: Учеб.пособие/Подред. проф. А. М. Ковалерой. – М: Финансы и статистика, 2003.-512 с.

3.4. Дробозина Л.А. Финансы, денежное обращение и кредит. – М.: «ЮНИТИ», 2000.-460 с.

3.5. O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyoti (O'quv qo'llanma) / Tuzuvchi: prof. N.T.To'xliyev. – T.,1998.

3.6. Haydarov M. Xalqaro moliya bozorlari taraqqiyoti globallashtirish jarayonida. – T: Fan, 2003.-155b.

- 3.7. Haqberdiyev Q. Q. Moliya va kredit. O`quv qo`llanma – T.,2006
- 3.8. Sadibekova B. Dj. Xitoy iqtisodiyoti, 1-qism. O`quv qo`llanma – T.,2010
- 3.9. Ван Мэнкуй и др. Экономика Китая, Изд-во межконтинентального Китая, Пекин, февраль 2005 г. с. 114.
- 3.10. Китай: фундамент успехов XXI века. Аналит.обзор. /Инст. ДВ РАН, 2002, 200-с.
- 3.11. «Китай: факты и цифры, 2012», Пекин, 2013 г.
- 3.12. Китайская Народная Республика: политика, экономика, культура. Под ред.акад. Титаренко М.Л., М., 2008г.
- 3.13. Котляров Н.Н. Важнейшие аспекты взаимодействия КНР с ВТО//Мировое и национальное хозяйство.-2007.-№3
- 3.14. Ли Ливэй Вступление Китая в ВТО и иностранные банки // "Социально-гуманитарные знания 2006". Дополнительный выпуск -М., 2006
- 3.15.Островский А.В. Китайская модель перехода к рыночной экономике. М.,ИДВ РАН, 2007.-208 с.
- 3.16. Основные тенденции развития Китайской экономики в XXI веке, Шенян, 2004. с. 86.
- 3.17. Портяков В.Л. О банковской сфере Китая // Деньги и кредит. - 2006. №5.
- 3.18.Жуджунь Д., Ковалев М.М., Новик В. В. “Феномен Экономического Развития Китая” Мн.: Издательский центр БГУ, 2008. – 446 с.
- 3.19. Селищев А.С., Селищев Н.А. Китайская экономика в XXI веке.- СПб.: Издательство «Питер». 2004. – 15 п.л.
- 3.20. Доклад о стратегии устойчивого развития Китая-2004 (2004 Чжунго кэ чисюй фачжань чжаньлюэ баогао). — Пекин. Кэсюэ чубаньшэ. 2004. С. 104.

IV. Ingliz tildagi adabiyotlar

- 4.1.Economic and Social Survey of Asia and the Pacific. - New York, 2004.- 299p.

4.2.Hands across the Strait. Shameen Assif. Bus. Week. Eur. Ed. 2004, №6 - 13 Sept., p.41.

4.3..International Monetary Fund: International Financial Statistics. - 2006. August.- 106p.

4.4. China Statistical Yearbook 2008. Beijing: China Statistics Press, 2008.

4.5. China Statistic Yearbook 2009, China Knowledge

V. Internet saytlari

5.1.www.World-bank.Org

5.2.www.chinabusinessreview.com

5.3.<http://www.aph.gov.au>

5.4. <http://www.imf.com>

5.5. <http://www.world-tourism.org>

5.6. <http://www.traveldailynews.com>

5.7.<http://www.china.org.cn>

5.8.<http://www.chinalist.ru/>

5.9.<http://www.chinalaw.ru/>

5.10.<http://www.kitairu.ru/>

5.11.<http://www.china-reports.net/>

5.12.<http://www.chinaneews.ru/>

5.13.<http://www.chinatoday.com/>

5.14.http://mirec.ru/index.php?option=com_content&task=view&id=101